

# VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 150 (1476), 2025-yil 24-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## ISH USLUBI O‘ZGARIB, TIZIMGA SUN’IY INTELEKT JORIY QILINADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-iyul kuni Hisob palatasining faoliyati hamda ijro tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Hisob palatasining ish uslubi o‘zgardi, uning vakolatlari kengaytirildi. Eskicha tekshiruvlardan voz kechilib, moliyaviy, muvofiqlik, samaradorlik va strategik audit tizimi joriy qilindi.

Endilikda bu palata faqat nazorat qiluvchi emas, balki byudjet intizomiga ko‘maklashuvchi hamkor idoradir. Shu bois, asosiy e‘tibor moliyaviy intizom buzilishining oldini olish, buning omillarini tahlil qilishga qaratilmoqda.

Masalan, bu yil 6 oyda o‘tkazilgan audit tadbirlari natijasida 5 trilion 600 milliard so‘m samarasiz byudjet xarajatlari qisqartirilgan, byudjetga 5 trilion so‘m qo‘shimcha tushum imkoniyati aniqlangan.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti izchil o‘shib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, moliyaviy nazorat ko‘lami va ish hajmini ham oshiradi. Buni qamrab olishning samarali yo‘li — raqamlashtirish. Shu maqsadda “Masofaviy audit” axborot tizimi ishga tushirilgan. Hozirgacha u orqali 4 trilion so‘mlik kamchiliklar bartaraf etilgan.

Taqdimotda endi tizimga sun‘iy intellektni joriy qilib, kamchiliklarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish vazifasi qo‘yildi.

O‘tgan yili 12 ta vazirlikda moliyaviy nazorat bo‘yicha tashkil qilingan situatsion markazlarning ko‘rsatkichlari qayd etilib, bu tizim joriy yilda yana 10 ta vazirlik va idoraga kengaytirilishi belgilandi.

Shu bilan birga, byudjet tashkilotlarida ichki audit va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirib, Hisob palatasi bilan axborot almashuvini kuchaytirish bo‘yicha topshiriq berildi.

Prezident farmoniga asosan, davlat auditi xalqaro standartlar darajasiga chiqarilmoqda. Hisob palatasi xodimlari bir yil davomida xalqaro auditorlar bilan birgalikda ishlab, tajriba to‘pladi. Natijada tashqi qarz hisobidan bo‘layotgan loyihalar xalqaro mezonlar asosida auditdan o‘tkazilmoqda. Bunday tartibni loyihalarning ilk bosqichlaridan boshlash muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Shu yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi tahlili bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Hisob palatasiga “Xalq nazorati” platformasini barcha hududlarda yo‘lga qo‘yish topshirilgan edi. Taqdimotda mutasaddilar bu borada boshlangan ishlar va zarur chora-tadbirlar to‘g‘risida axborot berdi.

Bu tizim orqali qurilish, infratuzilma, kommunal xizmatlar, energiya ta‘minoti, transport, yo‘l, ekologiya kabi sohalaridagi muammolar bo‘yicha xabar beriladi. Ularni hal qilish uchun portalga barcha vazirlik, idora va hokimliklar ulanadi.

Hozirgi kunda bu dasturni sun‘iy intellekt asosida takomillashtirish, vertikal nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish, koll-markazlar tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga ijro intizomini mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish va tejankorlikni ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA



Buyuk o‘zbek yo‘li

## MINGDAN MILLIONGA AYLANAYOTGAN QUVVAT YOXUD UCHINCHI RENESSANSNI BARPO QILAYOTGAN FIDOYILAR

Zamonaviy dunyo bugungi kunda taraqqiyotning misli ko‘rilmagan ziddiyatli pallasiga kirgani, jamiyatlarning kechagi muvozanati bugunga to‘g‘ri kelmay qolayotgani haqida bot-bot bong urilmoqda. Turli mamlakatlarning kishilari tongni “Endi nima bo‘ladi?” degan xavotir bilan qarshi olayotgani rost. “Dunyo o‘zgarib ketdi, biz bilgan dunyo qolmadi!” deyishmoqda odamlar.

Davomi 3-betda

## O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston”gacha: YO‘QOTILGAN QALBNI IZLAB...



### Germaniyalik siyosiy sharhlovchi, “Berliner Zeitung” nashri Geosiyosat bo‘limi rahbari Tomas Fasbenderning siyosatshunos Quدراتilla Rafiqov bilan suhbat

Bundan bir muddat oldin Germaniyaning nufuzli “Berliner Zeitung” nashri siyosiy sharhlovchisi, nashr Geosiyosat bo‘limi rahbari Tomas Fasbenderning siyosatshunos Quدراتilla Rafiqov bilan suhbatini e‘lon qilgandi.

Mamlakatimizning yaqin o‘tmishi, buguni, kelajagi va mintaqadagi siyosiy evrilishlar to‘g‘risida mulohaza yuritilgan “O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston”gacha: Yo‘qotilgan qalbni izlab...” sarlavhali ushbu maqola o‘z vaqtida o‘zbek tiliga o‘girilib, e‘lon qilingandi.

Mazmun-mohiyati, ko‘tarilgan masalalarning dolzarbligi, qolaversa, Prezidentimizning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, shuningdek, mintaqa miqyosidagi tashabbuslari va yorqin natijalari asosli faktlar, dalillar orqali ravon tilda sharhlangani uchun ham ayni suhbat hech mahal o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi deb o‘ylaymiz.

Shu bois, bugun o‘quvchilarimizga ikki siyosatshunos o‘rtasida kechgan musohabani ulashishni lozim topdik.

Davomi 4-5-betlarda



### AMALIY NATIJALAR

### BERAYOTGAN ULKAN IMKONIYATLAR

Har bir millat kelajak avlodda komillikni ko‘rishni orzu qiladi. Shu bois, bugungi kunda yurtimizda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan, intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilda ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularni axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish

ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalalari yuzasidan muhim va jiddiy vazifalar ijrosiga kirishildi.

Davomi 8-betda

### Surur va g‘urur

## TOPGAN TOJ-U DAVLATING ABADIY POYDOR BO‘LSIN

Men bir she‘rlar boshladim — tonglar tongotar bo‘lsin, Boshlagan har bir she‘rim elimga mador bo‘lsin, Topgan toj-u davlating abadiy poydor bo‘lsin, Davlatingni qutlashga davlatlar qator bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

To‘lib-toshib kuylasam sel bo‘ldi ko‘ngillarim, She‘rimning daryosiga tor keldi sohillarim, Jo‘shqin sog‘inchlarimga jo‘r bo‘ldi singillarim, Elim baxtiyor bo‘lsin, yurtim barqaror bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

She‘rlar ayta boshlasam avj, baland pardalarda, Ming-ming o‘g‘il-qizlarim qo‘zg‘aldi partalarda. Shu jonim sadqalar-da, shu jonim sadqalar-da! Yangi maktablarimga bor-budim nisor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Men eski zamonlardan aytmayman, deb qasd qildim, Ham ko‘hna armonlarga qaytmayman, deb qasd qildim. Shu she‘rimda men shu gal shu ishlarni lafz qildim. Zamon — dorilomondir, mangu navbahor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Bo‘lar elning bolasi o‘zi ma‘lum bergaydir, Yuz ming o‘smir dasturchi ilm-u ulum bergaydir, Menday yuz ming shoirga bari ta‘lim bergaydir. Zamonangdan aylanay, jiddu jahdning bor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Garvardda o‘qiysanmi yoki Kembrijdami, Yaqindagi xorijmi yo yiroq xorijdami, Sayru gashlar aylasang Porij yo Forishdami — Qayda bo‘lsang ham ilming elingga dorkor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Biz shiddatli zamonda davronmi o‘zgartirdik, Zamon bizni, biz esa zamonni o‘zgartirdik, Eng avvalo, biz inson, insonni o‘zgartirdik, O‘zgarganing millatga g‘urur bo‘lsin, or bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Yangi O‘zbekiston bu — Vatan tanho Vatandir, Inglizcha so‘ylasam gar “New Uzbekistan”dir. Dovrug‘ing bugun butun olamga taralgandir, Dushmanlaring abgor-u do‘stlaring bisyor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Shu davru davronimga men bitsam qasidalar, Darrov bosib chiqardi chap-chaqqon gazetalar. Uncha-muncha lashkar ham bizlarga hasad qilar, Gazetkim, askar kabi doim tap-tayyor bo‘lsin, “Yangi O‘zbekiston”ga omad doim yor bo‘lsin!

Bizda Vatan boshlangay har uy, har xonadondan, “O‘tajon”, “Onajon”dan, jondan-da jonajondan. Toki urush-nizolar ketsin, deb bu jahondan, Tinch bo‘lsin, deb bu olam sarkor-u sardor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Transchegaraviydir bizda ezgu siyosat, Salkam qirq milyonli xalq shu maqsadga kafolat. Dunyo turguncha tursin shu davlat sog‘-salomat, Topgan toj-u davlating ustuvor, poydor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Muhtaram Prezident, Janobi Oliylari, Sizdan rozidir ming-ming o‘zbek oilalari. Shahru kent-u qishloqlar — voha-yu vodiylari — Elni ko‘rib har dilda faxr-u iftixor bo‘lsin, Yangi O‘zbekistonga omad doim yor bo‘lsin!

Sirojiddin SAYYID,  
O‘zbekiston xalq shoiri





Suv — ulugʻ neʼmat, butun olam tirikligi manbai. Prezidentimiz qanchalik qiyin boʻlmasin, xalqimizni suv bilan taʼminlash, dehqonlarimizga zarur sharoitlar yaratish uchun bor imkoniyatlarni ishga solmoqda. Odamlarni rozi qilish, aholining turmush sharoitini yanada yaxshilashga qaratilgan islohotlar bugun oʻz samarasini berayotganini koʻrib, bilib turibmiz. Davlatimiz rahbarining “Dehqon boy boʻlsa, davlat boy boʻladi” degan soʻzlari zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad mujassam.

Bundan oʻn yil oldin xalqaro ekspertlar bilan mulohazotda iqlim oʻzgarishi, yogʻingarchiliklar va asriy muzliklar kamayishining Markaziy Osiyoga taʼsirini muhokama qildik. 2025-yilga kelib, mintaqada suv resurslari 5 foizgacha, 2030-yillarda 10 foizgacha kamayishi mumkinligi, aholining suv tanqisligidan aziyat chekish haqida tashvishli bashoratlar bildirildi.

Davlatimiz rahbari suv xoʻjaligi sohasi oldiga, birinchi navbatda, xalqimiz ehtiyoji uchun suvni yetkazib berish, iqlim oʻzgarishi va boshqa taʼsirlar tufayli suvning yetishmayotgan qismini qoplash vazifasini qoʻygan.

Koʻrilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2023-yilda 7, 2024-yilda 8 milliard kub metr suv iqtisod qilindi. 2025-yilda esa ushbu koʻrsatkichni 10 milliard kub metrga yetkazish koʻzda tutilgan. Bu yetishmasligi bashorat qilingan oʻsha suv miqdoriga teng, desak xato boʻlmaydi. Yaʼni iqtisod qilish orqali bizga yetmayotgan suv miqdorini qoplaymiz.

2030-yilgacha yiliga 15 milliard kub metr suvni iqtisod qilishga erishish maqsad qilingan.

Nukus shahrida zax suvlari tufayli koʻcha chetlari va yoʻlak boʻylaridagi yerlarni tuz qoplab, gulu rayhon tugul dov-daraxt ham koʻkarishi qiyin edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yilda Nukus shahridan oʻtuvchi “Doʻstlik” kanalini betonlashga kirishildi. “Nukus” kollektorini bosqichma-bosqich qurish ishlari boshlandi. Qisqa fursatda natija boʻy koʻrsatdi. Kanaldagi suv filtratsiyasi kamayib, sizot suvlari sathi pasaydi. Bugun Nukus koʻchalarni borib koʻrsangiz, gullar yashnab turganiga guvoh boʻlasiz.

Yoki bir paytlar Guliston shahrida yer osti suvlari meʼyordan oshib ketaverganidan Sirdaryo viloyati markazini Yangiyer shahriga koʻchirish masalasi ham koʻrilgan edi.

Masalaning yechimiga Shavkat Mirziyoyevning oʻzi bosh-qosh boʻldi, zarur mablagʻlar topildi. Guliston shahridan oʻtuvchi kanalni rekonstruksiya qilish va betonlash natijasida suv filtratsiyasi kamaydi. Vertikal drenaj quduqlari qurildi, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilib, sizot suvlari sathi sezilarli darajada pasaytirildi.

Bunday misollar juda koʻp. Urganch shahrida “Shovot” kanalining betonlanishi tufayli yoki boʻlmasa deyarli botqoqqa aylanay degan Norin tumanida tik quduqlar qurilishi natijasida yer osti sizot suvlari sathi bilan bogʻliq muammolar barham topdi.

Prezidentimizning eʼtibori tufayli suv xoʻjaligi sohasiga ham katta sarmoyalar kiritilyapti. Islom taraqqiyot banki ishtirokida



Shavkat HAMROYEV,  
suv xoʻjaligi vaziri

Xorazm viloyatidagi “Toshsoqa” kanallar tizimi, Jahon banki mablagʻlari hisobidan Fargʻona vodiysi viloyatlaridagi kanallar, Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Buxoro viloyatidagi, Islom taraqqiyot banki kreditlari evaziga Surxondaryo viloyatidagi kanallar betonlanishi natijasida ushbu kanallar hududida yer osti suvlarining sathi oʻrtacha koʻp yillik koʻrsatkichdan 0,3-0,5 metrga pasaydi, kanallarning foydali ish koʻeffitsiyenti oshdi.

Eng asosiysi, sugʻoriladigan yerlarning suv taʼminoti yaxshilandi, suv oʻzi oqib kelishi hisobiga minglab kichik nasos stansiyalar faoliyati toʻxtatildi. Elektr energiyasi va ekspluatatsiyaga ketadigan mablagʻlar iqtisod qilindi.

Prezidentimiz 2023-yil 29-noyabr kuni qishloq xoʻjaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yoʻqotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida kanal va ariqlarni betonlash masalasiga alohida urgʻu berdi.

Hisob-kitoblarga koʻra, betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga oʻrtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv isrof boʻlyapti. Shu bois, 2024-yil — suv xoʻjaligida “Kanallarni betonlash boʻyicha zarbdor yil”, deb eʼlon qilindi. Davlat byudjetidan 676,7 milliard soʻm ajratilib, 555 kilometr kanallar rekonstruksiya qilindi. Klaster, fermer xoʻjaliklari tomonidan 13,5 ming kilometr ichki sugʻorish tarmoqlari beton qoplamaga oʻtkazildi.

Bular shunchaki aytib oʻtib ketiladigan raqamlar emas. Binobarin, bularning ortida xalq farovonligi, dasturxonlarimiz toʻkin-sochinligi masalasi turibdi.

Yaqin-yaqinlarda tomchilatib sugʻorish texnologiyasi Oʻzbekiston sharoitiga toʻgʻri



kelaydi, bizning issiq iqlimga ariqlardan anʼanaviy usulda sugʻorish mos degan notoʻgʻri qarash bor edi.

Oʻzbekistonda 4,3 million gektar sugʻoriladigan yer maydoni boʻlsa, shuning qariyb 40 foizi oxirgi besh-olti yilda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olindi.

Keyingi yillarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etganlarni ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha Prezidentimizning 7 ta farmon va qarori qabul qilindi.

Ilgari suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarining uskuna va butlovchi qismlari chet davlatlardan keltirilgan. 2019-yilda mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalar bilan shugʻullanadigan ikki yoʻl uchta korxona bor edi. Hozirga kelib, bunday korxonalar soni 60 tadan oshdi. Ishlab chiqarish mahalliyashtirilishi hisobiga bir gektar uchun mahsulot tannarxi 20 foizgacha arzonlashishi bilan birga joylarda servis xizmati yoʻlga qoʻyildi. Birgina suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hisobidan 2024-yilda 2,5 milliard kub metr suv iqtisod qilindi.



Agar davlatimiz rahbari qatʼiy talab qoʻymaganida, davlat tomonidan kredit, subsidiyalar ajratilmaganida hali ham suv tejovchi texnologiyalarni ishlatish uchun quyosh paneliga oʻtayotganlar safi kengaymoqda.

Ochigʻini aytish kerak, suv xoʻjaligi sohasiga davlat budjetidan ajratilayotgan mablagʻning 70 foizi 1700 ga yaqin nasos stansiyasi uchun sarflanadigan 7 milliard kilovatt-soat elektr energiyasiga yoʻnaltiriladi. Koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda 8,3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi sarflangan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 6,5 milliard kilovatt-soatga tushdi.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 7-noyabr kuni qishloq xoʻjaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yoʻqotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida oxirgi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiya qilingani, lekin oʻrta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi oshib ketayotgani taʼkidlangandi. Shu kabi muammolardan kelib chiqib, yigʻilishda galdagi vazifalar belgilandi. 2025-yil — suv xoʻjaligida “Nasoslar samaradorligini oshirish yili” deb eʼlon qilindi.

Prezidentimiz taʼkidlaganidek, suv xoʻjaligi sohasida keskin oʻzgarish qilishning birdan-bir



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yoʻli — raqamlashtirish. Bu orqali shaffoflik, aniqlik taʼminlanadi, korrupsiyaning oldi olinadi.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi va suv xoʻjaligini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, oxirgi toʻrt yilda onlayn rejimda 13 ming 174 ta suv ombori va irrigatsiya tizimining suv oʻlchash postlarida suv resurslarini kuzatib borish imkonini beruvchi “Aqli suv”, 10 ming 296 ta meliorativ kuzatuv qudugʻida sizot suvlari koʻrsatkichlari va yerlarning mineralashganlik darajasini nazorat qiluvchi “DIVER”, 1748 ta nasos stansiyada suv sarfini monitoring qilish qurilmalari oʻrnatildi. 96 ta yirik suv xoʻjaligi obyektlarining boshqaruvi avtomatlashtirildi.

Vazirlik huzurida Suv xoʻjaligini raqamlashtirish markazi tashkil etildi. “Suv hisobi”, “Nasos stansiyalari” kabi axborot tizimlari yaratildi.

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori xalqimizga koʻrsatilgan katta gʻamxoʻrlik namunasi boʻldi. Binobarin, hujjatda 2024-2025-yillarda eng ogʻir ahvoldagi mingta mahallada tomorqa yerlarini sugʻorishni yaxshilash yoki ularda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini taʼminlash, internet sifatini oshirish, ichki yoʻllarni taʼmirlash va boshqa infratuzilmani yaxshilash maqsadlari uchun 3,2 trillion soʻm mablagʻ ajratilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari aholi eʼrtaga yoki uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashash degan gʻoyani ilgari surmoqda. Bugun tomorqasiga ekin eksi, daromad olsin, boy yashasin, deyapti.

Shu maqsadda “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi doirasida 2025-yilda 864 ta obyektlar umumiy qiymati 1,1 trillion soʻmlik 1882 kilometr sugʻorish tarmogʻi betonlandi, 185 kilometr lotok tarmogʻi, 380 kilometr quvur, 818 ta sugʻorish qudugʻi qurildi, 421 ta nasos agregati oʻrnatildi.

Suv taʼminotida muammo boʻlgan mahallalardagi 467 mingta xonadonning 77,5 ming gektar tomorqa maydonida suv taʼminoti yaxshilandi.

Bugun suv xoʻjaligi tizimidagi ishlar koʻlami keng. Bularning boshida, eng avvalo, sohani ich-ichidan yaxshi biladigan, bilimi va uzoq yillik tajribasi bilan bizga yoʻl-yoʻriq koʻrsatib kelayotgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev turganini alohida eʼtirof etamiz.

Qiyinchiliksiz hayot yoʻq. Yillar oʻtar, suv tangis boʻlar, davrlar kelar suv yana koʻpayar. Nima boʻlmasin, Oʻzbekiston xalqi xotirjam yashashga haqli. Chunki ularni oʻylaydigan, bu zaminda yashayotgan odamlar uchun qaygʻuradigan yurt rahbari, bedor qalbli inson bor. U kishining oldindan koʻra bilgan holda, uzoqni koʻzlab amalga oshirayotgan tadbirlari tufayli bu oʻlka taraqqiyot iziga tushib olgan, xalqimiz hayoti yildan yilga farovonlashib bormoqda.

ish oʻrni, byudjetga qoʻshimcha 120 milliard soʻm tushum, 100 million dollarlik eksport imkoniyati yaratilishi koʻzda tutilgan. Nasib qilsa, viloyatimiz investitsiya, ish oʻrni, aholi daromadi va eksport eng tez oʻsayotgan hududlardan biriga aylanadi.

Viloyat iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi salmoqli oʻrin tutadi. Keyingi yillarda mazkur sohada ham mislsiz ishlar amalga oshirildi.

— Prezidentimiz qishloq xoʻjaligi sohasida ilgari eʼtiborda boʻlmagan bir necha tarmoqqa diqqatimizni qaratdi. Jumladan, kartoshkachilikni, dukkakli ekinlarni koʻpaytirishda yangi imkoniyatlar yaratilayotgani biz fermerlarni ham mamnun etdi, — deydi “Sherbek Shodiyev” fermer xoʻjaligi rahbari Toʻlan Atayev. — Yurtboshimiz tashabbusi bilan Zominda kartoshka urugʻchiligi ilmiy tajriba stansiyasi tashkil etilib, xorijiy va mahalliy seleksiyaga mansub 12 ta nav birlamchi urugʻchiligi yoʻlga qoʻyildi. Bu tajriba stansiyasida kartoshkaning yangi seleksiya navlaridan 12 tonna yuqori avlod super elita urugʻlik aholi xonadonlariga bepul tarqatilib, 120 tonna elita urugʻlik yetishtirish loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Ushbu yangilik ushbu ekinni koʻpaytirishda qoʻyilgan juda katta qadam. Loyihaning amalga oshirilishi Zomin, Gʻallaorol tumanlarini kartoshka yetishtiradigan yirik markazga aylantiradi deb oʻylayman. Oʻzimizda shuncha imkoniyat boʻla turib, xorijdan kartoshka sotib olmasligimiz kerak.

Mamlakatimizdagi islohotlar “nafasi” har bir hududga, har sohaga kirib boryapti. Aholi bandligi va turmush madaniyatiga qaratilayotgan eʼtibor barcha hududda birdek namoyon boʻlmoqda. Natija bajarilgan ish bilan oʻlchanadi. Ha, kecha boshlangan katta islohotlar bugun aniq natijaga aylandi. Kelajak uchun esa yanada yangi va yuksak marralar belgilab olinmoqda.

**Farhod NEʼMATOV,**  
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

## Prezident tashrifidan soʻng

# NATIJA BAJARILGAN ISH BILAN OʻLCHANADI

**Shu kunlarda Jizzax viloyatining shahari qishloqlaridagi katta-kichik davrlarda, oʻzaro suhbatlarda Prezidentimizning Zomin tumaniga tashrifi asosiy mavzuga aylandi. Odamlar choyxonalarda, dam olish maskanlarida, uzoq-yaqinlari bilan diydorlashuvlarda davlatimiz rahbarining Zominda nimalarni koʻrgani, nimaga eʼtibor qaratgani haqida gaplashmoqda.**

Bu bejiz emas, albatta. Davlatimiz rahbari viloyatlarga katta loyihalar, hayotbaxsh rejalar bilan tashrif buyuradi va bu oʻsha hudud hayotida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari surʼatiga, aholi turmushining yaxshilanish sari oʻzgarishlariga katta turki boʻladi. Jizzaxga qilingan ushbu tashrif ham aynan shunday vazifani oʻz ichiga oldi.

— Zomin bugun goʻzal tabiati bulangina emas, sanoat salohiyati bilan ham mashhur boʻlib bormoqda, — deydi “Nuroniylar” jamgʻarmasi Zomin tuman boʻlimi rahbari Oʻrol Aqulov. — Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar tufayli yuz berayotgan katta oʻzgarishlar tumanimizda ham boʻy koʻrsatyapti. Bu xalqimizni behad xursand qilayotgani ham rost. Oʻzgarishlar, qurilishlar surʼati mislsiz shiddat bilan amalga oshirilmoqda. Shu shubha sabab qurilish, obodonlashtirish, hatto dehqonchilikda ham fasl, vaqt biz bilan hisoblashayotganday. Davlatimiz rahbarining Zomin kabi tumanlar kelajakda ishsizlikdan toʻliq xoli boʻlgan, yuqori texnologik ishlab chiqarish va rivojlangan ijtimoiy infratuzilimga ega boʻlishi haqidagi fikrlari xalqimizni quvontirdi.

Zomin tumanida qishloq xoʻjaligi, turizm sohalarida katta imkoniyatlar bor. Keyingi yillarda tumanda sanoat ishlab chiqarish borasida

ham salmoqli ishlar bajarildi. Bu hududning iqtisodiy salohiyatini, aholining turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz tashrif buyurgan “Zomin texnoparki” qurilishi oʻtgan yili 27-iyunda boshlangan edi. 400 gektarda barpo etilgan texnoparkda xitoylik investorlar bilan birgalikda 1 milliard 200 million dollarlik 31 ta loyiha amalga oshirilishi koʻzda tutilgan. Yaqinda rejadagi korxonalardan birinchisi — “Xinjiang Honglin Tiandi” kompaniyasi qiymati 10 million dollarlik beton mahsulotlari tayyorlash loyihasini ishga tushirdi. Natijada 60 kishi ish bilan taʼminlandi.

Tashrif davomida davlatimiz rahbariga navbatdagi yana bir loyiha “Midea” brendi ostida yiliga 300 ming dona maishiy texnikalar ishlab chiqaradigan korxonada qurilish ishlari yakunlanayotgani haqida axborot berildi. Bu korxonada 150 ta ish oʻrni yaratildi.

Maxsus sanoat zonasiga dastlabki bosqichda 9 ta loyiha joylashtirilgan. Hozir umumiy qiymati qariyb 300 million dollarlik yana 7 ta loyiha boʻyicha qurilish ishlari bajarilmoqda. Ularda qurilish materiallari, konstruksiyalar, elektr texnikasi va kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi, logistika va trening markazi tashkil

etiladi. Rejalarga koʻra, barcha loyihalar natijasida qariyb 5 trillion soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi kerak. Jumladan, 15 turdagi yangi mahsulot oʻzlashtirilib, 70 million dollarlik eksport imkoniyati paydo boʻladi. Natijada 5 mingdan ortiq yangi ish oʻrni yaratiladi.

— Prezidentimiz koʻz qarayotgan maishiy texnika zavodini yangi qurilab chiqirib, ushbu yoʻnalish boʻyicha yurtimizda katta salohiyat bor ekaniga eʼtibor qaratdi, — deydi Zomin tumani hokimining molliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish boʻlimi boshligʻi Zarifjon Omonqulov. — Davlatimiz rahbari bu korxonada yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, Oʻzbekistonni mintaqaviy “elektrotexnika xabi”ga aylantirish vazifasi borasida fikr bildirdi. Sakson gektar maydonda joylashgan loyihaning umumiy qiymati 150 million dollardan iborat. Quvonarlisi, zavodda 7 mingdan ziyod odam ish bilan taʼminlandi. Bu shuncha oilaning farovonligi degani. Biita yirik korxona butun bir shahar aholisini boqishiga dunyoda misollar koʻp. Xuddi shunday korxona bugun bizning tumanda bunyod etilyapti.

Ha, kir yuvish mashinasi, sovitkich, televizor, elektr suv istikhi kabi yiliga 1 million dona maishiy texnika hamda butlovchi qismlar ishlab chiqaradigan zavod haqiqatan yirik loyiha. Yillik ishlab chiqarish hajmi 320 million dollari tashkil etadi. Shundan 140 million dollarlik mahsulot eksportga chiqarilishi moʻljallanmoqda.

Davlatimiz rahbari xorijiy investitsiyalarni jalb etishga doimiy eʼtibor berayotgani bejiz emas. Ayniqsa, sanoatni rivojlantirish katta



sarmoya talab etadi. Shu bois, Prezidentimiz yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishish davomida investorlarga koʻmaklashish imkoniyat bor ekan, nega ilgari arzimagan buyumni ham chetdan olganmiz, — deydi “Nuroniylar” jamgʻarmasi Jizzax viloyati boʻlimi raisi Norqul Nusharov. — Tashrif davomida maxsus sanoat zonasining ikkinchi bosqichida yana 5 ta loyihani ishga tushirish reja qilingan. Ular doirasida xavfsizlik va tibbiyot texnikalari, noutbuk, planshet, server, router kabi zamonaviy mahsulotlar hamda charm va sport poyabzallari,

— Prezidentimizning Zominga tashrifini televizor orqali diqqat bilan kuzatar ekanman, bir narsaga eʼtibor qaratdim: oʻzimizda shuncha imkoniyat bor ekan, nega ilgari arzimagan buyumni ham chetdan olganmiz, — deydi “Nuroniylar” jamgʻarmasi Jizzax viloyati boʻlimi raisi Norqul Nusharov. — Tashrif davomida maxsus sanoat zonasining ikkinchi bosqichida yana 5 ta loyihani ishga tushirish reja qilingan. Ular doirasida xavfsizlik va tibbiyot texnikalari, noutbuk, planshet, server, router kabi zamonaviy mahsulotlar hamda charm va sport poyabzallari,

qurilish materiallari, chinni idishlar, kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tayyor mahsulotning qariyb 70 foizi tashqi bozorda sotilar ekan. Ilgari Zominda ishlab chiqarilgan mahsulot xorijga sotilishi hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Qarang, ishlasak, izlasak, olis togʻli hududda ham qisqa muddatda shunday katta yutuqqa erishish mumkinligiga amin boʻldik.

Bugun yurtdoshlarimiz quvonchi va hayratiga sabab boʻlayotgan yangilanishlar jarayoni jadal davom etmoqda. Bu xususida viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari Zafar Azimov shunday deydi:

— Viloyatda mutasaddilar, soha mutaxassislari va yetakchi tadbirkorlardan iborat “Islohotlar shtabi” tuzilgan. Ayni paytda shtabda umumiy qiymati 520 million dollarlik 200 ta loyiha shakllandi. Shu orqali 12 mingta





# MINGDAN MILLIONGA AYLANAYOTGAN QUVVAT

## YOXUD UCHINCHI RENESSANSNI BARPO QILAYOTGAN FIDOYILAR

### Boshlanishi 1-betda

Vatanimizda tinchlik va osoyishtalikni barqaror saqlab turish, rivojlanish va taraqqiyotga erishish har qachongidan ham murakkab ekanini bugun barchamiz yaxshi anglab turibmiz.

Shunday bir vaziyatda yurtimiz mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramini tinchlik va barqaror o‘shish bilan, bir-birimizga yor bo‘lib, haqiqiy o‘zbekona ma‘rifat va g‘urur bilan qarshi olayotganimizga shukr qilamiz.

— “Qirq yilda el o‘zgarar” deyishadi. Bu maqol bugunga mos kelmay qoldimi deyman? Axir el uch-to‘rt yildayoq o‘zgarib ketdi.

— Ha, hayot tezlashdi, bir necha yil ichida turmushimiz tubdan o‘zgardi. Yangilanishlarning sanog‘iga yetish qiyin. Yurtida ulkan jarayonlar sodir bo‘lmoqda, asr qurilishlari davom etmoqda. Inson qadr-qimmatini sharaflamoqda. Hayotga munosabat o‘zgarib bormoqda. Kechagina odamlar xorijga chiqishni xayoliga ham keltirilmadi. Bugun oilasi yoki do‘stlar bilan birgalashib sayohat qilayotganlar, tijorat yoki tahsil maqsadida borayotganlar minglab topiladi. Oldin bolalarimizga “Ko‘p kitob o‘qiyverma, miyang suyulib ketadi, yaxshisi mol-holga qara” der edik, bugun “Chalg‘imasdan kitob o‘qisang bo‘lmaydimi?” deb tanbeh beryapmiz.

— Shuni aytgim, Kechagina bolamiz oliy ta‘lim dargohining eshigiga yaqin boramasi, bugun yuzlab universitetlar xizmatida. Qolaversa, dunyoning istalgan mamlakatida tahsil olishga yo‘l ochiq.

Muhandis do‘stimizning so‘zlariga qaragim:

— Dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlari qatlam-qatlam taraqqiyot dasturlariga start berildi, qonunchilik moslandi va kelajakni kafolatlab berdi, fanimiz ilg‘or texnologiyalarni va yutuqlarini o‘rganishga hamda transfer qilishga kirishdi. Birgina mening sohamda yuzlab yoshlar dunyoning eng ilg‘or o‘lkalaridagi texnologiyalarni o‘rganib qaytmoqda. Kechagina o‘rtacha murakkablikdagi texnikalarni ishlatish va sozlash uchun chetdan mutaxassis chaqirishga majbur bo‘lardik, bugun bunday uskunalar o‘z farzandlarimiz bemaol boshqaraypti.

Shunday fikrlarni axborot texnologiyalari muhandisi davom ettiradi:

— Yangilanishlar barcha sohalarida va ularni aql qamrab ololmaydi. Mamlakatdagi raqamlashtirish jarayonini aytaylik. Misol uchun, avvallari birgina ma‘lumotnomani olishga o‘rtacha ikki soat vaqt ketgan bo‘lsa, mamlakat aholisining shuncha vaqtini hisoblab ko‘ring. Bu asrlarga teng bo‘ladi. Bugun o‘nlab turdagi davlat xizmatlariga kompyuterdan yoki qo‘l telefonidan bir lahza erishish mumkin. “Bir million dasturchi” tashabbusi natijasida yurtimizda zamonaviy dasturchilar qatлами shakllandi. Ammo bu yoshlarimiz shunchaki dasturiy ta‘minot va ilovalarni buyurtmachiga yetkazib berishyapti desangiz adashasiz. Buyurtma asosida ishlash — ularning kundalik ehtiyojlari uchungina xolos. Yoshlar orasidan turli zamonaviy uskuna, texnologiya va qurilmalarning ishlash va boshqarish dasturini yaratadiganlar yetishib chiqdi. Bugun yoshlarimiz zamonaviy dasturlash, robototexnika, parvoz qurilmalari ishini rejalashtirish va boshqarish dasturlarini yaratmoqda. Al-Xorazmiy ta‘biri bilan aytganda, “noldan bir yaratildi”, hali bu mingga yetganida nimalar yuzaga chiqishini tasavvur qilib ko‘ring!

Oliy ta‘lim sohasi tubdan o‘zgardi. Ta‘limning yangi usullari joriy qilindi, amaliy va aniq fanlarga yo‘naltirilgan ta‘lim muassasalari zarur zamonaviy jihoz va uskunalar bilan ta‘minlandi. Yangi darslar va darsliklar joriy qilindi. Shu o‘rinda yosh Abu Ali ibn Sinoning otasi Samarqanddan Abu Abdulloh Notiliy degan mashhur olimni Buxoroga chorlagani, o‘g‘limga ta‘lim berib degan iltimos qilgani esga keladi. Bugun dunyoning eng ilg‘or mamlakatlarning ko‘zga ko‘ringan olimlari, Nobel mukofoti laureatlari yurtimiz ta‘lim dargohlarida saboq bermoqda. Dual va individual ta‘lim tizimi shakllandi, ta‘lim transformatsiyasi yuz berdi. Ayni kunlarda butun respublikaning oliy ta‘lim dargohlarida yoshlarni har tomonlama yetuk mutaxassis etib tarbiyalash borasidagi xayrli tashabbuslardan biri bo‘lmish “Dolzab to‘qson kun” loyihasi tadbirlari davom etmoqda. Undan ko‘zlangan maqsad — ma‘naviy barkamollik, vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish bilan birga, har bir talabada bir necha soha ko‘nikmasini hosil qilish, har bir yosh bir kasb egasi bo‘lishini ta‘minlashdan iborat.

Bunday e‘tirolarni nafaqat fizik, matematik, kimyogar, biolog kabi mamlakat taraqqiyoti



Isajon SULTON,  
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

uchun juda kerakli kasblarning egalari, balki iqtisodchi, siyosatchi, huquqshunoslardan ham eshitamiz. Ushbu sohalarining kishilari jarayonlarni chuqur tahlil qilib, yangilanishlar strategiyasi doirasida ko‘zlangan marralarga erishishning o‘z sohasiga taalluqli jihatlarini to‘la ta‘riflab berishiga shubha yo‘q. U holda, oddiy kishilar-chi?

Qisqa davrda xususiy biznes va ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayotganlar soni bir necha baravar ortdi. “Shunday bir sharoit yaratildiki, orzu ham qilolmas edik, — deydi tadbirkor do‘stimiz. — Keling, ortga emas, oldinga ko‘z tikaylik. Bozor oldin bir xil edi. Endilikda uning o‘nlab turlari paydo bo‘lganiga o‘zimiz ham shoshib qoldik. Pesttaxtalarimizni iste‘mol mollarning yuzlab turi to‘ldirdi, internet va onlayn savdo maydonchalari kundalik ehtiyojga aylandi. Jamiyatda turli yangi bozor turlarining rivojlanishi sotuvchi va xaridor orasidagi ishonchnigina emas, savdo-sotiqning kafolatlanganini, ya‘ni bu boradagi qonunlar ishlayotganini bildiradi. Xususiy ishlab chiqarishda katta o‘zgarish yuz berdi: misol uchun, toshdan ip yoki havodan suv olish mumkinligi kimning xayoliga kelibdi?

Juda ko‘p kishilar tez orada yurtimizda katta yuksalish sodir bo‘lishini aytmoqda. Dunyo karvon yo‘llari muvozanatining o‘zgarishini,

Darhaqiqat, deyarli qirq million aholiga ega mamlakat kishilari tushunchalarining o‘zgarishiga guvoh bo‘lib turibmiz. Odamlarimiz yangiliklarga intila boshlashdi. Oddiy misol: barpo etilayotgan yangi shaharlar va bog‘-bo‘stonlar bilan birga, aholi qurayotgan uylarning shakli shamoyili, me‘moriy yechimlari ham o‘zgardi. Oldingi an‘anaviy imoratlar o‘rinda endi bir necha qavatli, barcha qulayliklarga ega binolar tiklanyapti. Hatto ranglarigacha o‘zgarib, quvnoqroq, porloq ranglar qo‘llana boshlandi. Bunday imoratlarining birinchi qavatidan tijoriy shoxobchalar joy oldi, hayot taqozosiga ko‘ra odamlarimiz bir inshootni ikkiga, uchga, to‘rtga aylantirishdi.

Kechagina minglab ota-onalarning niyati oddiygina, o‘sha davrga xos edi: bolalarni bir amallab katta qilib, uyli-joyli qilsak, to‘ylar ko‘rsak, omad kulib boqsa-yu biron kichikroq avtoulav nasib qilsa ajabmas. Bugun bular orzu-havasdanoq voqelikka aylandi. Shu sababli “bolalarni bir amallab katta qilish” emas, kelajakda yetuk inson bo‘lib yashashi uchun bilim va malaka berishga intilish ilg‘orga chiqdi. Ota-onalarga kelsak, bugun eng chekka hududlarda ham kishilarning o‘zlari turli-tuman xizmat va ishlab chiqarish shoxobchalarini qurishdi. Internet bu borada o‘ta qulay yordamchi bo‘lib chiqdi, hozir olis hududlarda ham elektron xizmatlar ishlab turibdi. Kelajak dasturimiz esa bu bilan qanoatlanmaydi: hamma gap kishilarimizning bunyodkorlik qobiliyatida qolmoqda. Tadbirkorlarimiz o‘zlari yashab turgan hudud sharoitidan kelib chiqib, aholiga zarur qulayliklarni taqdim qilishlari kun tartibiga keldi. Xizmat sohasi shiddat bilan rivojlandi. Bu soha to‘yingach, kishilar yangi turlarini izlab topishga va yangiliklarni joriy qilishga majbur bo‘lishlari tayin.

Jamiyatimizdagi yana bir muhim o‘zgarish — bugun har kim o‘zini tashvishga solayotgan masala va muammolar haqida bemaol fikr aytish huquqiga ega bo‘ldi. Ya‘ni mamlakatda ko‘p yillardan buyon mavjud bo‘lmagan so‘z erkinligi ro‘yobga chiqdi. Bugun yurtimizning eng chekka hududidagi kishi ham o‘z fikrini cheklolarsiz, ochiq bildiradi. Shu tariqa, davlat boshqaruvi tizimiga xalq boshqaruv



yangi xalqaro yo‘laklar ochilayotganini ko‘ryapsizmi? Yangi karvon yo‘llari ochilishi bilan birga, qit‘alararo tijorat karvonlari O‘zbekistondan o‘tishi aniq. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaydi, aksincha, yurtimiz ulami ohanraboday o‘ziga jalb qilib, Osiyo bilan Yevropani bog‘laydigan juda muhim integratorga aylanadi, undan yangi bilim, texnologiya, mablag‘ daryolari o‘tadi. Oqqan daryodan har qanaqasiga foyda bor, bu jarayonning ilmini bilganlar esa misli ko‘rilmagan natijalarga ega chiqadi.

Akademik ustozlarimizdan biri shunday deydi: “Ulug‘ mutafakkir Muhammad al-Xorazmiy hind sanog‘idagi bo‘shliqni “nol” deb nomlagan va unga muqobil arab raqamini joriy qilgan edi. Bu — bo‘shliqdan moddiyat paydo qilish degan ma‘noni anglatadi. Bugun jamiyatimizning turli sohalarida “bir”ni ko‘rib turibmiz, maqsad esa ana shu “bir”dan “ming”ni yaratish. Keyingi marra esa mingdan millionni yaratish haqida bo‘ladi.

— Shunday, aytilgan yuksalishga qonunlarimiz va jamiyatimizni tayyorlab borish uchun jon kuydirilyapti, — bu huquqshunosning so‘zlar. — Buning uchun kishilarimizning tushunchalari, odat va ko‘nikmalari davrga mos ravishda o‘zgarishi zarur ekanligi ayon bo‘lib qolmoqda.

tizimi kirib kelganiga barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Fikrga, munosabarga ochiqlik yuksalish, yangi g‘oyalari sari boshlaydi. Chunki bunday shaxslar dunyoga tiyrak nigoh ila qaraydi.

Bundan bir qancha yil ilgari “Birdan mingni yaratish” tamoyili qamrab oladigan jarayonlar ilg‘or texnologiya va fan yangiliklarini yurtimizda joriy qilishdan iborat ekanligi ta‘kidlangan edi. Bular kelajak sohalar bo‘lmish muhandislik, axborot texnologiyalari, robototexnika, molekulyar fanlarning ilg‘or yutuqlari hisobiga yuz berdi. Bunday katta ko‘lamli jarayonni sodir qilish uchun ko‘p yillik aniq reja kerak bo‘lsa, u rejani amalga oshirish uchun kuchli siyosiy iroda, matonat va shijoat, chuqur mulohaza va albatta, barchaga o‘mak bo‘lgulik fidoyilik zarurligini hamma tushunib yetgan, albatta.

“O‘zbekiston rekordlarga imzo qo‘ymoqda” — jahon axborot nashrlarida shunday sarlavhalar ko‘proq o‘rin ola boshladi. Bu yuksalish darajalarini anglatadi: agar mustaqillik tufayli vatanimiz afsonaviy Yaqinus singari kuldan bosh ko‘tarib chiqqan bo‘lsa, endilikda jahon uning parvozini kuzatmoqda.

“Mingdan million-chi?” deyidiganlar ham bor. Million — bu Uchinchi Renessansning ayni o‘zidir.



— Renessanslarni fidoyilar barpo qiladi, — deydi tarixchi olim. — Ehtiyojlar maqsadga qarab o‘zgaradi-ku? Maqsad ulug‘ bo‘lsa, mashaifi ikir-chikirlarni ortga suradi.

— Unda orzu-havas nima bo‘ladi? — deydi kimdir. — Bola-chaqani uylab-joylash, mundayroq biron mashina olish, el-yurtga to‘y berish... Bularga erishish uchun tinmay urinib-tirishish kerak emasmi?

Shunda umrini el-yurt xizmatiga bag‘ishlagan ulug‘larimizdan birining so‘zlari esga keladi: “Faqat yuksak maqsadga erishishni va g‘alaba qozonishni ko‘zlash kerak. Kichikroq narsalarni maqsad qilsangiz, ularga erishsangiz ham, g‘alaba nasib qilmasligi mumkin. G‘alaba shunday narsaki, sizga o‘zingiz ko‘zlagan barcha ne‘matlarni olib keladi”.

Yana bir jihat: orzu-havas deyilganida, xalqimizning “Kengga keng dunyo, torga tor dunyo”, degan hikmati yodga keladi. Jahon mamlakatlari yurtimizdagi tub yangilanish va yuksalishlarga shohid bo‘ldi. Ayni shu keng ko‘lamli azim jarayonlar jahonga o‘zbekona yuksak axloq, lutf va an‘anal bilan bo‘ylashish o‘magi bo‘lib dunyo diqqatini tortdi. O‘zaro hurmat va ehtiromga asoslangan qo‘shnchilik munosabatlari deymizmi, olam yoshlarini insoniyat asriy zakovatining mahsuli bo‘lmish umuminsoniy an‘analari ruhida tarbiyalash va shunday g‘oyalari atrofida birlashtirish tashabbuslari yoki olam ahlini ezigulikka chorlovchi madaniyat, san‘at namoyishlari deymizmi, eng yuksak xalqaro minbarlarda ona tilimizning yangrashi deymizmi — barchasi Vatan dovrig‘ini yuksaltirish va ravnaq toptirish uchun qilnayotgan fidoyilik namunasi o‘laroq e‘tirof etildi.

Yuksak axloq, nomus, vatanparvarlik, halollik va to‘g‘rilik xalqimizning ezu an‘analari

shahrida “Bog‘i Jahon Oro‘ni ta‘mirlatganida, ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy “Sab‘ai sayyor” dostonida unga bag‘ishlab ajoyib madhiya bitgani ko‘pchilikka ma‘lum. U-ku birgina bog‘ ekan, bugun yangi O‘zbekiston bo‘ylab yuzlab bog‘lar barpo etilmoqda. Bu so‘zning majoziy ma‘nosi ham bor: u nazm san‘ati tilida yurt farovonligini, barakat va huzur-halovatni anglatadi.

Olis-yaqin hududlarimizdagi millionlab insonlar xalqaro maydondagi ko‘p yo‘nalishli masalalarga yurtimiz manfaati va xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda yondashish, avvaldan to‘planib qolgan muammolarni hal qilib, mamlakatni tamomila yangi start maydonchasiga olib chiqish, yangi jarayonlar mobaynida yuzaga kelayotgan muammolarning tezkor yechimini topish, ularni zudlik bilan bartaraf etish, kerak bo‘lganida tuzatishlar kiritish va taraqqiyot yo‘nalishini og‘ishmay boshqarib borish, milliy an‘analimizga qat‘iy rioya qilgan holda yechim topish uchun qancha kuch, shijoat, g‘ayrat kerakligini tushunib, yuksalish yo‘lida barcha bir tanu bir jon bo‘lib, bahamijhat qo‘llab-quvvatlash kerakligini chuqur idrok qilib turishganiga shubha yo‘q.

Ko‘zlangan marralar ko‘z qamashtiruvchidir. Kechagina butun boshli bir viloyatning yillik investitsiya marrasi yarim million dollarga yetib-yetmagan bo‘lsa, bugun tuman miqyosidagi birgina tadbirkorning aylanma mablag‘i bundan karrasiga ziyod. Viloyatlarimiz o‘zaro bellashib, dunyo mamlakatlari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri erkin iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Endilikda jahonning ko‘pgina bozorlarida mamlakat nomi bilan birga muayyan mahsulotni eksport qilayotgan hudud nomi ham baravar yangrab, brendga aylanmoqda.

tashlandi. O‘rinda yangi, kelajak sari intilgan ko‘priklar barpo bo‘ldi. Barakotli O‘zbekiston tuproqlarida yetishtirilgan mahsulotlar endilikda xomashyo emas, tayyor brend mahsuloti sifatida taqdim etila boshlandi.

Uzluksiz davom etuvchi bu rivojlanish jarayonining kelgusidagi natijalari qanday bo‘lishi ham aniq belgilab berildi. Tog‘-kon, geologiya, ma‘danhunoslikdan tortib, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaligigacha bo‘lgan sohalarida katta yangilanishlar yuz berdi, ularda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va “aqli” yondashuvlar tufayli baraka qozonish jarayoni ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘ldi. Shu bilan birga, bu marralar sari malakali va bilimli yoshlarni oldindan tayyorlab borishday ulkan vazifa ham uddalandi.

Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, dunyoning eng ilg‘or ishlab chiqarish tizimlari O‘zbekistonda bunyod bo‘lishiga shubha yo‘q. Gap esa ana shunday ilg‘or korxonalarni boshqara oladigan salohiyatli boshqaruv xodimlari va mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirishda qolmoqda. Ya‘ni yillar mobaynida “ishchi kuchi yetishtiruvchi” mamlakat bo‘lib kelgan yurtimiz endilikda “aql kuchi yetishtiruvchi” mamlakatga aylanayotir. Shu bilan birga, asriy an‘analimiz bo‘lmish odob va axloqning, o‘lmas madaniyatlarining, sehiri san‘at va adabiyotning, insoniylik tarannumining timsoli bo‘lib yangidan qad ko‘tarib chiqdi.

Shuningdek, fikr va tushunchalar o‘zgarishi ham sodir bo‘ldi. Hozir shahar va qishloqlarimizda kechayu kunduz yangi yetishtiruvchi mamlakatga aylanayotir. Shu bilan birga, asriy an‘analimiz bo‘lmish odob va axloqning, o‘lmas madaniyatlarining, sehiri san‘at va adabiyotning, insoniylik tarannumining timsoli bo‘lib yangidan qad ko‘tarib chiqdi.

Faxr va hayrat bilan kuzatayotganimiz bu ko‘lamli jarayonlar oddiygina qilib “start nuqtasi” deb baholalanmoqda. Mingdan millionni yaratishday ulkan marrani ko‘zlangan maqsadlarimizning qanchalar hayotiy va hayotbaxsh ekanini mamlakatda sodir bo‘layotgan turli-tuman yangilanish jarayonlari va olis-yaqin mamlakatlar mutaxassislarining e‘tirolari isbotlab turibdi. Shu bilan birga, avval ko‘rilmagan bunday qamrovli jarayonlar yangi muammolarni ham paydo qilmoqda, biroq ona yurtimiz kuchli iroda, vaziyatni tezkorlik bilan oqilona baholash va eng maqbul qarorlar qabul qilish fazilati ila ko‘zlangan ulug‘ marralarga sabot va shijoat ila, qat‘iyan og‘ishmay ilgilarib borishiga shubha yo‘q.

Dunyo turlanib-tuslanuvchan, yurtimiz esa yagona! Shunday barakotli o‘lkada, shunday xalq orasida dunyoga keltirgani uchun Yaratganga mingdan-ming shukr qilsak arziydi. Ulug‘larimizning niyatlari har doim ezu bo‘lib kelgan: yurt tinch, el farovon bo‘lsin, ko‘pning duosini olgan sira kam bo‘lmasin deb duo qilishgan.

Tarix mobaynida yurtini yuksaltirgan, xalqining farovonligi uchun zahmat chekkan kishilarning nomi doimo hurmat bilan tilga olinadi. Elga yaxshilik qil, ko‘pning duosini ol — barcha bu ishlarining negizida shunday ezu niyat bor. Yoniq quyrak bilan tunu kun yurt ravnaqi uchun jon kuydirgan fidoyilar nomi toabad sharafta va e‘zozga burkanadi, albatta.

bo‘lsa, yana bir fazilati bunyodkorlikdir. Barcha bo‘lidan kelganicha o‘zidan keyingilarga gullab-yashnagan bo‘ston qoldirishga intiladi. Bu an‘ana xalqimizda asrlar bo‘yi davom etib kelmoqda. Chunonchi, sulton Husayn Hirot

Zamonaviy texnologiyalar borasida ham yurtimiz yangi yaratish bosqichiga tayyorlanayotgani quvonarli. Xomashyo yetishtirib berish davrlari allaqachon ortda qoldi, majozan aytganda, u ko‘priklar endi buzib



# O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston” gacha: YO‘QOTILGAN QALBNI IZLAB...

## Boshlanishi 1-betda

— Janob Rafiqov, menda O‘zbekiston haqida nimadir yozish, bu yurtda kechayotgan jarayonlarni teranroq anglash ishtiyoqi tug‘ilganiga ancha bo‘lgan. Yevroosiyoda joylashgan bu mamlakatni nafaqat geosiyosiy, balki sivilizatsion nuqtayi nazardan ham qit‘aning markazi deyishga asoslar bor.

Menimcha, olis o‘tmishda ushbu zaminda paydo bo‘lgan ikki buyuk yuksalish — Islom uyg‘onish davri va Temuriylar renessansi ulashgan madaniyat va ilm-fan nafaqat Sharq xalqlari yoki islom olami, balki insoniyat tarixi uchun ham o‘ta muhim edi. Ammo qudratli imperiyalar va tamaddunlarga beshik bo‘lgan zamin bir necha asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy parokandalik girdobida qoldi va hatto mustamlakachilik azoblarini ham totib ko‘rdi...

Hozir sizdan so‘ramoqchi bo‘lganim olis o‘tmish haqida emas, balki bu o‘lkaning buguni, mamlakat va jamiyatning mustaqillikdan keyin ham o‘zini o‘nglab olishi qiyin kechgani, siyosiy elita zehniyati, ayniqsa, jamiyat tafakkurida sovet davridagidan-da xavotirli turg‘unlik hukm surgani haqida bo‘ladi.

Xo‘sh, nega shunday bo‘ldi? Mamlakat egamenlikka erishgach ham qariyb chorak asr, to biz subhatlashib o‘tirgan bugungi kunlargaacha eski mafkuraviy tutumlarga “sodiq” qoldi.

Bilishimcha, jamiyat ham, siyosiy elita ham o‘z “kimligi”ni konseptual jihatdan anglab olishi, yangilashi uchun haligacha ikkilanishlarga duch kechayotganday. Buning sabablari, qolaversa, mustaqillik tuyg‘usi, umumiy milliy kimlik, bu borada xalq bilan davlat orasidagi munosabatlar “ozodlik tongi”dan keyin qanday kechgani haqida so‘ramoqchiman.

Yana bir mulohaza, muayyan maqomi va barcha siyosiy atributlari bor O‘zbekiston Respublikasi yoniga nega mustaqillikdan chorak asrdan ko‘p vaqt o‘tgach, “yangi” sifatovchisi qo‘shib ishlatiladigan bo‘ldi? Bunga qanday zarurat bor edi?

— Ko‘tarilgan masalaga bir og‘iz so‘z bilan javob berish qiyin. Chunki mavzu murakkab: yangi dunyo olimlarini eng ko‘p o‘ylantirayotgan, turli munozaralarga sabab bo‘layotgan, xarakteriga ko‘ra o‘ta ziddiyatli diskurs — metropoliyalar va mustamlakalar mavzusi.

Garchi yoqimsiz bo‘lsa-da, haqiqat shuki, Janub bilan Shimolni, G‘arb bilan Sharqni bog‘lovchi nuqtada joylashgan ulkan mintaqaga uzoq yillar “chet o‘lka”, (taassufki, bugun ham shunday o‘laydiganlar bor) sifatida tasniflandi. Ammo u bunday ta’rifga loyiqmide? Albatta, bu alohida masala. Hozir savolingizdan chalg‘imaylik. Aniq esimda yo‘q: kimdir “Insoniyat tarixi urushlar tarixidir”, degandi. Bu jumla meni nafaqat chiroyli qurilishi, balki mazmundor poetikasi bilan ham juda mutaassir etadi. Undan kelib chiqadigan fikr esa tushunarli: garchi urushlar, bosqinlar tarixining bir bo‘lagi ekan, demak, hukmronlar va mazlumlarda doim bo‘ladi... Hali aytganimdek, juda ko‘p olimlar tarixning mana shu qismi borasida bosh qotirishgan, izlanishlar qilishgan. Shulardan biri postkolonial tadqiqotlar asoschisi va nazariyotchilaridan biri, kelib chiqishi falastinlik (arab xristiani) bo‘lgan amerikalik olim, Kolumbiya universiteti professori Edvard Vadi Said edi. U o‘zining eng mashhur asari “Orientalizm”ga Marksning “Lui Bonapartning o‘n sakkizinchi brumeri” asaridan iqtibos keltiradi — “Ular o‘zlarini ifoda etolmaydilar, ularni boshqalar tanitishi kerak”. Orientalizmlar talablariga ko‘ra, Tanitish o‘zi haqida o‘zi gapira olmaydi, o‘zini o‘zi tanita olmaydi, taqdim eta olmaydi, balki boshqalarning o‘zi haqida gapirishlariga, taqdimiga, demak, Yevropa fani ko‘magiga muhtoj...

“Orientalizm Sharqni qayta talqin qilib, Yevropaga tanishtirish yo‘lida qo‘llanilgan qo‘shib oluvchi, o‘zlashtiruvchi fan tarmog‘i ekan, Sharqning hukmron Yevropa tomonidan egallanib, o‘zlashtirilish jarayoni dunyo amaliy siyosatida unga o‘xshash boshqa bir tarmoq edi. Bu o‘rinda Sharq G‘arbnimg majoziy ma’nodagi subhatdoshiga emas, uning yonida churq etmay turuvchi “o‘zga” ga aylandi”, deya tushuntiradi Said. Keng ma’nodaga qo‘l kolonial va postkolonial davr haqida ketar ekan, ayni tadqiqot bizning jamiyatimiz, bugungacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy kechmishimizni baholi qudrat ifoda etishga arziydi, desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Yevroosiyaning markazida joylashgan mintaqamiz, garchi Said tilga olgan global



G‘arb va Sharq, ayniqsa, arab sharqidek mavzuning markazida bo‘lmasa-da, mazmun-e’tiboriga ko‘ra, xiyla “oriyentalashgan” edi. Chunki o‘lkamiz bir yarim asr davomida ikki bor mustamlakachilikni boshidan kechirdi... Qolaversa, bugungacha bizning nomimizdan ham gapirdilar, kimlardir bizni atrofga tanishtirdi. Biz ham uzoq yillar hukmron kuchlar oldida “churq etmay o‘tiruvchi” “o‘zga” ga aylandik...

Endi savolingizning birinchi qismiga to‘xtalsak. Nega bunday bo‘ldi? Buning o‘ziga yarasha obyektiv va subyektiv sabablari bor. Ehtimolki, ayni shu asoslarga ko‘ra ham aksar tadqiqotchilar mintaqamiz, xususan, O‘zbekistonda hali-hamon milliy davlat va millat qurish jarayonlari davom etayotganini uqitirishadi va bu fikrning kelishsa bo‘ladigan jihatlari ham yo‘q emas.

Mohiyatan o‘tgan asming birinchi yarmida shakllantirilgan siyosiy o‘zbek millati kechmish davrda tarixi, madaniyati, tili va o‘zlikni belgilovchi boshqa kodlarga ega millat sifatida jahonga taqdim etilgan bo‘lsa-da, kolonial chegaralarini sindirolmadi va bu polisemantik mazmunga ega edi: jumladan, sovet mafkurasii milliy respublikalardagi “o‘zlik”ning barcha sifatlarini “umum ovozi”ga bo‘ysundirishga harakat qildi. Sobiq ittifoqning eng gullagan 70-80-yillarda haddi a’lосiga yetgan “sovet kishisi” konsepsiyasi Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan milliy jamiyatlarini sovet kosmopolitizmining gibrid-duragay o‘zaniga chuqurroq kiritdi.

Siz to‘g‘ri anglaganingizdek, biz mustaqillikdan keyingi deyarli yigirma besh yilda ham ushbu konsepsiya ta’siridan chiqib keta olmadik. Nega? Chunki sovet zamonining so‘nggida yuz bergan “qayta qurish” va mustaqillikning 90-yillarida ham davom etgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni davlat jiddiy xavf, deya qabul qildi (holbuki, o‘sha yillarda paydo bo‘lgan ijtimoiy muhit siyosiy va etnik mansubliklarni qayta idrok etishga undagan edi) va milliy, diniy hamda siyosiy kayfiyatlarining barcha ko‘rinishini siquvga oldi. Davlat ijtimoiy-mafkuraviy sektorda xuddi ittifoq zamonlaridagidek qattiqqo‘l va yagona o‘yinchiga aylandi. Bitta farqi, u mafkurasi edi, xolos. Aynan o‘sha 90-yillarning boshida voz kechilgan kommunistik mafkura diktati o‘rnini har qanday yangi g‘oya va fikr fobiyasi egallab oldi.

Jamiyatda din, milliy o‘zlik va eng asosiysi, tarixga bo‘lgan yangicha, ochiqroq aytganda, hadiksirab qarash sovet konservatizmi konsepsiyasidan-da duragayroq tushunchani shakllantirdi. Uning eng qo‘pol shakli jamiyatning na turkiyi, na islomiy mansublikka aloqador ekanini o‘jarlarcha cheklashda ko‘rindi.

Aholisining deyarli 90 foizini etnik turkiy qavm — o‘zbeklar va islom e’tiqodiga amal qiluvchi musulmonlar tashkil qiladigan mintaqaning eng katta mamlakatida KIMlik turli g‘oyalara (masalan, O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat)ni amalga oshiruvchi vatandoshlar siyosisini yaratishda aks eta boshladi.

Ammo bu g‘oyalara kommunistik utopiyalarga mosligi, hayotdan uzoqligi va ham etnik, ham mafkuraviy nuqtayi nazardan nohayotiyarli uchun jamiyatga singib ketmadi. Odamlarda ushbu ijtimoiy-siyosiy harakatga shubha va ishonchsizlik bilan qarash kayfiyatini uyg‘otdi.

Mustaqillikdan keyingi milliy davlat va milliy jamiyat barpo etishning bunday o‘ziga xos muhofazakor yo‘li nafaqat ichki siyosiy muvozanat, balki tashqi, xususan, mintaqaviy

siyosat trayektoriyasida ham ters burilishga, o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolishga olib keldi. Biz bir davlat va milliy jamiyat o‘laroq, yon qo‘shnilarimizdan ajralib qoldik. Iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatdagi proteksionizm va hammaga birday yotsirab qarash falsafasi bizni jismonan yakkalab qo‘ydi, muayyan ma’nodada zaiflashtirdi ham. Yaqin tariximizdagi qo‘shnilarimizga qarshi yuritgan siyosatimiz bizda milliy davlat va millat qurish jarayonlarini ortga surib yubordi. Chunki bir tirik organizm hisoblanmish mintaqa hayoti o‘zgarayotgan bir pallada yangilanishlardan o‘zni chetga olish davlatning kolonializm mafkurasiga moyilligini ko‘rsatib berdi.



Xullas, mustaqillikning o‘tgan 25 yillik davrida milliy davlat va millat qurish ishlari jiddiy qaralmadi. Ayni shu sabablarga ko‘ra, aksar tahlilchilar O‘zbekistonda o‘tish davri amalga oshgan 2016-yillar so‘ngigida “...Mirziyoyevga og‘ir siyosiy va iqtisodiy meros qoldi”, degan fikrga kelganlarida mutlaqo haq edilar...

Eng afsuslanarlisi, siz aytgandek, geosiyosiy nuqtayi nazardan muhim nuqta — Yevroosiyaning markazida joylashgan mintaqaning eng yirik va barcha jihatdan ta’sir kuchiga ega mamlakati muayyan ma’nodada yopiq va dunyodan uzilgan davlatga aylanib qoldi.

Milliy davlat va millat qurilishining sovetcha konsepsiyasida qolib ketishga undagan ortodoksal mayl nafaqat ichki, balki mintaqaviy yakdillikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, bu mintaqada etnik millatchilikni “ilhomlantirib”, yangi tashkil topgan respublikalarni bir-biridan begonalashtirishga xizmat qildi...

— Siz hozir mustaqillikdan keyin mintaqada davlatlari o‘rtasida yaqinlashishdan ko‘ra, paradoksal bir holat — bir-biridan begonalashish boshlandi, deyapsiz, men to‘g‘ri tushundimmi?

— Ha, taqriban shunday. O‘tgan asr boshida bo‘lib tashlangan yaxlit bir mintaqa — Turkiston xalqlari ozodlikka erishgach, turli tushunmovchiliklarga duch kelishdi. Ba’zan xafagarchilik va noroziliklar qonli mojarolarga ham aylanib ketti.

O‘zaro nizolarga olib kelgan bu omillar chegaralar, sur, etnik salmoq talashuvlari tufayli yuz berdi. Bulardan ham yomoni qo‘shni davlatlar milliy mafkura deb hisoblayotgan narsalarning siyosiyashtirilganida ko‘zga tashlandi. Unga ko‘ra, tarix ham, mintaqaning madaniy merosi

ham mutlaqo monopollashtirildi. Kimdir istehzo aralash aytganiday, mintaqaning tarixi, madaniy merosi o‘zaro nafrat tiliga aylanib qoldi...

Afsuslanarlisi, bugun mintaqadagi besh davlatda tarix fanining besh xil, ba’zi o‘rinlarda bir-biriga mutlaqo teskari versiyalari o‘qitilmoqda. Holbuki, ularning o‘tmishi bir edi. Aytmoqchimanki, uzoq vaqt mintaqa jamiyatlarida milliy davlat va millat qurilishi jarayonlari aynan sovet usuliga mos — bir-birini inkor etish, o‘chakishish yo‘lida kechdi...

Mavzudan chalg‘ib ketdik, nazarimda. Biz kimliklar, mafkura va milliy tafakkur haqida gaplashayotgan edik. Tushunishimcha, kimlik (identitet)ning asosini til, madaniyat, tarix, tarixiy xotira tashkil qiladi. Tabiiyki, din ham bu borada muhim o‘rin tutadi. Umumiy ma’nodaga qaraganda, mafkuraviy vakuum jamiyat uchun ham, davlat uchun ham xatarlidir. Mustaqillikning ilk yillari bizda individualizm alomatlari paydo bo‘la boshlagan edi. Ya’ni davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatda uzilish kuzatilganday bo‘ldi. Yashash va kun ko‘rish tashvishi ko‘proq individning zimmasiga tusha boshladi. Kundalik turmushdagi maishiy dogmalar o‘z tusini yo‘qotib, davlat asosiy “boquvchi”lik maqomidan uzoqlashdi.

Shunday bir paytda odamga erish tuyuladigan sovetcha “tenglik konsepti” barham topib, tirikchilik har kimning qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib qoldi. An’analarga e’tibor kuchaydi. Til, o‘zlik, tarix, milliy qadriyatlar haqida ko‘p gapirila boshlandi. Aslida, shularning o‘zi ham qaysidir ma’nodada mafkura edi. Ya’ni sotsiumning o‘zi o‘zi uchun yaratgan mafkurasi. Taassuflar bo‘lsinki, jamiyatdan chiqqan ushbu tashabbus — iqtisodiy liberalizm ham, individualizm va traditsionalizm ham iliq kutib olinmadi yoki qayta ishlanmadi, inkor etildi; hali aytganimday,

mintaqada, dunyoda tutgan maqomimiz qanday, atrofdagilar bizni kim deb atagani muhim? Milliy davlat shakllantiramizmi, millat qurish masalasi nima bo‘ladi?..

Bu javobi yo‘q savollar jamiyatda ham, davlat siyosatida ham o‘sha siz aytgan tushunksiz manzara hukmron ekanini anglatardi. Ushbu ko‘rinishlar — iqtisodiyotdagi, ichki va tashqi siyosat, ma’naviy-mafkuraviy hayot va odamlar turmushidagi mavhumiyatni salbiy ma’nodagi davlat proteksionizmi “oziqlantirib” turardi.

O‘z qobig‘iga o‘ralib qolish, mamlakatni barcha “ta’sirlar”dan yopish yoki shunday deb o‘ylash, bugungi globallashgan dunyoda absurd, albatta. Biroq sanab o‘tilgan omillar quruq nazariya yoki elitar “qarich” bo‘lmay, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini, uning tabiatini uzoq vaqt belgilab kelgani ham bor gap. Siz ishora qilayotgan dekolonial kontekstdagi kimlik, an’analar silsilasi, o‘tmish, etnik mansublik yoki millat, milliy davlat tushunchasi va hatto tarixiy shaxslarga nisbatan qarashlarimizni ham hukmron rejim belgilab berdi. Qanchalik g‘alati eshitilmasin, aynan shu qarashlari bilan u o‘zi inkor etayotgan sotsial mafkuraning “yo‘nilgan” muqobiliga aylandi. Qiziq paradoks: rasman bizda mafkura yo‘q, biroq umumhitning har burchida u qoldirgan izlarni ko‘rish mumkin edi... Shu va hozir shosbga olish nazardan ko‘tarilgan boshqa jihatlar odamlarimiz tafakkuridagi fikriy turg‘unlikning asl sabablari sifatida bir-biriga o‘rin bo‘shatmay keldi.

Bizda hozir millat, milliy davlat, milliyat haqida gapirayotganlarning ko‘pchilligi romantik fikrlaydigan kishilar. Eng qaltis tomoni, gapirayotgan mavzularimiz bizda hali tuzuk-quruq ilmiy jihatdan tadqiq ham qilinmagan.

Masalan, globallashuv nuqtayi nazardan, buguni zamonaviy dunyoda biz millat deganda nimani tushunishimiz kerak, milliy davlat bir etnosga tegishli bo‘lishi kerakmi yoki turli etnoslar yig‘indisi bo‘lgan vatandoshlarning qandaydir uyushmasini? Mafkura, davlat rasmiy mafkurasi haqida ham shunday deyish mumkin.

Bizda bu borada aniq qarashning o‘zi bo‘lmagan. Buning sababi esa mustaqillikka kechgan chorak asrlik davrda ham siyosiy madaniyatning shakllanmaganiga, to‘g‘riroq‘i, unga yo‘l berilmaganiga borib taqaladi.

— Ayting-chi, siz hozirgina alohida urg‘u bergan 2016-yildan keyin mamlakatda, qolaversa, mintaqada nima o‘zgardi? O‘zingiz tilga olgan Saidning iqtibosidagi “mute”likdan chiqish yuz berdimi? Keyin siz avvalgi savolimning ikkinchi qismini esdan chiqargandek bo‘ldingiz. Ya’ni jamiyatda va ijtimoiy-siyosiy hayotda ajabtovur epitet — “Yangi O‘zbekiston” kalimasining paydo bo‘lishiga sabab nima?

— Darhaqiqat, bunga ham ma’naviy, ham siyosiy nuqtayi nazardan ehtiyoj bor edi. Chunki odamlar ham, davlat ham endi bu yo‘sin yashab bo‘lmasligini teran anglayotgandi. Yangi O‘zbekiston sifatlovchisi esa shu yo‘lda safarbarlik yoki istiqboldagi yangilanishlarga da’vat — ishoradek kun tartibiga chiqdi.

Bu boradagi mulohazalarimni Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida ish boshlagan davrdagi vaziyat bilan davom ettirsam to‘g‘ri bo‘ladi deb o‘ylayman. Chunki asl holat mohiyatni teranroq ochib beradi.

Xo‘sh, o‘sha paytdagi ahvol qanday edi? Ochiq aytaman, havas qilarlik emasdi. Shavkat Mirziyoyevning iqtidordga kelishi ham global, ham mintaqaviy va mahalliy inqirozlar zamoniga to‘g‘ri keldi. Xususan, AQSH harbiy kontingentining Afg‘onistondan olib chiqilishi, pandemiya, hali batamom tugamagan jahon iqtisodiy inqirozi, mintaqamizdagi ichki va chegaroldi milliy nizolar, jamiyatimizda uzoq yillar yig‘ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar...

Bulaming barchasi xuddi atay kutib turganday, Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida faoliyat boshlagan pallaga to‘g‘ri keldi. Masalan, bundan atigi 7-8 yil oldin mintaqadagi qo‘shnilar orasidagi munosabatlar qanday bo‘lganini siz ham yaxshi bilasiz. Shunday

bir vaqtda Afg‘onistondagi oxiri noma’lum bo‘lgan voqealar, albatta, yetarli xavotir va tashvish uyg‘otdi. Bundan tashqari, mintaqaning lahtaklarga bo‘linib ketgani Markaziy Osiyo darajasida yakdil fikrlashni qiyinlashtirdi. O‘sha paytda integratsiya haqida o‘ylashdan ko‘ra, qo‘shnilar o‘rtasida xohlagan paytda chiqishi mumkin bo‘lgan janjalni tusmollash haqiqatga yaqindek ko‘rinar edi.

Albatta, munosabatlardagi bunday beqarorlik atrofdagi o‘pinchi katta kuch markazlari manfaatiga mos edi. Ya’ni o‘zaro totuvlikning yo‘qligi mintaqani nochorlik botqog‘ida tutib turardi...

— Shu yerda gapingizni bo‘lsam. Sababi, siz aytayotgan ayni diskurs-mulohazani tinglayotib, xayolimda bir fikr uyg‘ondi. Xalqaro siyosiy adabiyotlarda “Yevroosiyo Bolqoni” degan atama tez-tez uchraydi. Bu yerda gap aynan siz yashayotgan mintaqa haqida ketayotganini bilsangiz kerak?!

— Ha, adashmasam, ushbu atamani ilk bor Z.Bzejzinskiy qo‘llagan edi. U mashhur asari — “Buyuk shaxmat taxtasi”da bu haqda atroflicha gapirgan. Garchi ushbu tezis o‘z xarakteriga ko‘ra siyosiy pisandadek tuyulsa-da, iddao asossiz emas edi. Bizdagi vaziyat ham xuddi Yevropa Bolqonidagidek siyosiy va etnik mojarolar, bir-biridan xafagarchiligu turli ziddiyatlarga to‘la edi. O‘zbekistonning yon qo‘shnisi Tojikiston yoki Qirg‘iziston bilan o‘sha davrdagi munosabatlarini bir esga oling: tojik lideri Emomali Rahmon deyarli yigirma yil Toshkentga qadam bosmagandi. Tez-tez siyosiy o‘zgarishlar amalga oshib turadigan yana bir qo‘shnimiz Qirg‘iziston bilan aloqalarimiz ham bundan pesh emasdi.

Hamma bilgan narsani yashirib nima qildik? Birinchi ma’muriyat davrida Qirg‘izistonning avvalgi barcha rahbarlari bilan munosabatlar hech qachon samimiy bo‘lmagan. Xuddi shunday, qozoq qardoshlar bilan ham ko‘zdan pana ziddiyatlarimiz yo‘q emasdi. Bu ko‘proq mintaqa liderligiga da’vo qilish — “sen zo‘rmi”, “men zo‘r” qabilidagi mutlaqo zararli “tortishuv” misolida ko‘rinib qolardi. Shunday kayfiyat hukmronlik qildiki, go‘yo birlashish haqida umid qilish ham foydasizdek ko‘rinardi. Shavkat Mirziyoyev ana shunday ijtimoiy-siyosiy tushkunlik, ishonchsizlik davrida O‘zbekiston rahbari etib saylandi.

Xo‘sh, shunday paytda nima qilish kerak edi? Albatta, vaziyatni to‘g‘ri baholash, kerak bo‘lsa, “otdan tushish” talab etilardi. Shavkat Mirziyoyev shunday qildi. Qo‘shnilar o‘rtasidagi muzlarni eritish, ular bilan samimiy munosabatlarni qayta tiklashga kirishdi. Shu harakatlar samarasi o‘laroq, 2018-yilga kelib, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat kengashi ish boshladi. Garchi tuzilma yarim institutsional bo‘lsa-da, uzoq yillik tanaffus va o‘zaro tushunmovchiliklardan keyingi bir-birini anglash, fikrni bir joyga jamlab olish uchun o‘ta muhim supa — platforma vazifasini bajardi. Davlatlarimiz o‘rtasida madaniy-gumanitar, iqtisodiy-siyosiy aloqalar tiklandi. Eng muhimi, mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotida yuzaga kelgan ijobiy muhit uning yaxlit bir xalqaro subyekt sifatida barqaror shakllanishini ta’minlab berdi.

Shu o‘rinda men janob Bzejzinskiyning bashoratlari oqlanmadi deb bemalol ayta olaman. Yana aytishga haqlimanki, Shavkat Mirziyoyev uning tushunchasini muayyan ma’noda “tahrirladi”. Bugun Markaziy Osiyoda raqobatdan ko‘ra hamkoriik, gina kuduratu adovatdan ko‘ra do‘stlik va qardoshlik kayfiyati hukmron.

Da’voim asossiz bo‘lmasligi uchun oddiy bir misol keltiraman. 2024-yil Parijda bo‘lib o‘tgan yozgi Olimpiya o‘yinlarini hammamiz ko‘rdik. Unda mamlakatimiz atletlari yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritdi. Qiziq va o‘z o‘rnida odamni xursand qiladigan jihat shunda ediki, shohsupaga ko‘tarilgan sportchilarimizni qo‘shni davlatdagi qardoshlarimiz ham xuddi bizdek olqishlashdi. Ijtimoiy tarmoqlar “Yashasin qardoshlarimiz, Markaziy Osiyo — Turkiston farzandlari hech kimdan kam emas, biz buyuk xalqmiz”, degan yozishmayu qutlovlarga to‘lib ketdi.





Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston tarixida ilk bor BMT minbaridan turib o‘zbek tilida nutq qildi... Mamlakatda diniy, siyosiy va so‘z erkinligiga yo‘l berildi. “Qora ro‘yxat”lar, eng asosiysi, O‘zbekistonni dunyoga mustaqillikdan keyin ham eski zamonlardagidek ko‘rsatib turadigan paxta yakkahokimligi, majburiy, ayniqsa, bolalar mehnatidan voz kechildi. Butun dunyoga ovoza bo‘lgan, siyosiy va diniy mahbuslar saqlanadigan Qoraqalpog‘istonning “Borsa kelmas”idagi “Jasliq” hibsxonasi yopildi...

# O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston” gacha: YO‘QOTILGAN QALBNI IZLAB...

## Boshlanishi 1-4-betlarda

Albatta, bu mintqa tarixi, bugungi hayoti bilan qiziqadigan odamlar, mutaxassislar e‘tiboridan chetda qolmadi. Masalan, o‘sha kunlari ayni hodisaga rossiyalik yirik olim, Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy antropologi va tadqiqotchisi Sergey Abashin bunday munosabat bildirdi: “2024-yilgi Olimpiada favqulodda muhim voqeaga aylandi. Gender va san‘at mavzulari muhokamasi bilan emas, balki, eng avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari va ayniqsa, 8 ta oltin medalni qo‘lga kiritib, 13-o‘rinni egallagan O‘zbekiston sportchilarining ko‘rsatgan ajoyib natijalari bilan esda qoladigan bo‘ldi (eslatib o‘tmoqchiman, Olimpiada yutuqlari bilan bir qatorda, o‘zbek shaxmatchilari ham so‘nggi yillarda jahon reytingida yuqori o‘rinlarni egallab kelyapti). Sport tilida aytganda, biz Markaziy Osiyo davlatlari umumbashariy miqyosda taniylotgan va tan olinayotgan muhim o‘yinчилarga aylanib borayotganiga va o‘z subyektligini anglab yetayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Bu dunyoda va sobiq postsovet hududda haqiqiy tarixiy siljish bo‘lib, hali uzoq davom etadigan va shubhasiz, tabiiy jarayondir”.

Sizga ma‘lumot uchun yana bir misolni keltirmoqchiman. Bu qirg‘izistonlik mutaxassislar o‘tkazgan tadqiqot bilan bog‘liq. Unga ko‘ra, Qirg‘izistonda 2016-yili, ya‘ni Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston rahbarligiga kelguniga qadar bo‘lgan davrda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda ishtirokchi-respondentlar O‘zbekistonni eng nodo‘st davlatlardan biri deb hisoblagan bo‘lsa, oradan atigi bir yil o‘tib, 2017-yilgi so‘rovlarda eng yaqin do‘st mamlakatlardan biri sifatida qayd etishgan.



Yana bir statistika: agar 2016-yil oxirida O‘zbekiston hamda Qirg‘iziston o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 200 million dollardan oshmagan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, bir necha barobar o‘sti — qo‘shnilar bilan 1 milliard 300 million dollarlik tashqi savdo amalga oshirildi.

Xabaringiz bo‘lsa kerak, o‘zbek va qirg‘iz fuqarolari o‘rtasida mustaqillikdan keyin bir necha bor qonli mojarolar yuz berdi. Ular asosan, suv, chegara va etnik kelishmovchiliklar fonida kechganini yaxshi eslaymiz. Albatta, bu o‘rinda men manfaatdor kuchlar va markazlarning ham ta‘sirini istisno qilmayman. Kezi kelganda, bir muhim faktga to‘xtalmoqchiman. O‘tgan yili Qirg‘iz Respublikasi rahbari “Ozodlik” radiosiga bergan intervyusida bevosita tariximizning o‘sha qora kunlariga ishora qilganday bo‘ldi. Mana, qarang, u nimalar degandi:

“...Endi eng asosiy masalaga to‘xtalsam. O‘zbek tomoni shundoq ham O‘zbekistonga oqayotgan suvni qay usulda olishining bizga farqi bormi? Quvur orqalimi, ariq yoki havodanmi — ahamiyati yo‘q. Muhimi, har bir harakat o‘zaro kelishib olinishi kerak. Bundan buyon qirg‘iz-o‘zbek do‘stligi mustahkam bo‘ladi. Do‘stlik rishtalarimizni Xudodan boshqa hech kim uza olmaydi. Shu bois, Yaratgan Egamdan hamisha tinch yashashimizni so‘rashimiz kerak”.

Mintqa davlatlari siyosiy elitalari, qolaversa, oddiy odamlar o‘rtasidagi bunday samimiyat, qat‘iy siyosiy iroda qayoqdan paydo bo‘ldi deb o‘ylaysiz?!

Fikrimcha, shu muxtasar misollar ham 2016-yildan keyin mintaqada nimalar bo‘lganini ko‘rsatishga yetadi. Qolaversa, bugun O‘zbekistonning birotta qo‘shnisi bilan chegara bo‘yicha muammosi yo‘q. O‘zbekiston qo‘shnilari bilan ikki tomonlama va turli tuzilmalar doirasida do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yg’an.

— Ammo bu tashkilotlarning ko‘pi

an‘anaviy — masalan, SHHT, MDH, KXSHTga o‘xshash uzoq yillik o‘tmishga ega institutlar ekanini ham hisobga olish kerak. O‘zbekiston bu doiralarda begona emas edi...

— Sizni tushundim. Agar e‘tibor bersangiz, O‘zbekiston o‘tgan davrda qat‘iy faoliyat



yuritgan siyosiy-iqtisodiy tuzilmalar otalg‘i, garchi oshkor aytilmasa-da, asosan, atrofimizdagi kuch markazlari qo‘lida edi. Ularning ta‘sir pishanglari ham, mafkuraviy muddaolari ham deyarli aniq sezilib turardi. Yangi davrga kelib esa O‘zbekistonning tashqi siyosat vektorlari rang-baranglashdi. Hali siz bilan gaplashganimiz, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari, “5+1” deb ataluvchi formatdagi platformalar paydo bo‘lishi bevosita O‘zbekistondagi siyosatning o‘zgargani hisobiga

dunyoda va turkiy mamlakatlar Yevroosiyoing o‘rta zonasida joylashganini ko‘ramiz. Ajdodlarimiz butun tarix mobaynida xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan bog‘lashdek missiyani bajarib kelgan. Buyuk ipak yo‘li mintqa orqali o‘tgan, bu yerda paydo bo‘lgan

davlatlar, imperiyalar G‘arbiy Yevropa bilan Xitoy, Shimol bilan Janubni o‘zaro birlashtirib turgan. Hech shubhasiz, ushbu merosga Tojikiston ham bevosita daxldordir. Tojikiston til jihatidan forschi bo‘lgani bilan umumiy tarix va madaniyat nuqtayi nazaridan mintqa xalqlarining ajralmas bo‘lagidir. Qolaversa, ular nafaqat tarix, balki madaniy-maslahat uchrashuvlari, “5+1” deb ataluvchi formatdagi platformalar paydo bo‘lishi bevosita O‘zbekistondagi siyosatning o‘zgargani hisobiga

“

“Hozir katta-katta davlatlar: “O‘zbekiston, sen kim tarafda? Bo‘ldi endi, neytral bo‘lib yurishing bo‘ldi, yo u tomonga o‘tgin, yo bu tomonga o‘tgin”, deya qattiq-qattiq aytib, vakillari ham kelib, shunga da‘vat qilyapti. “O‘rta Osiyoda O‘zbekiston bizga kerak, 36 million bo‘ldi, 3-4 yilda 40 million bo‘ladi, katta davlat bo‘ladi, kim tarafsan?” deyapti. Qarang, shunday og‘ir savolga qanday javob berish kerak? Javob bitta: bir tomonman, millatim, xalqim, buyuk O‘zbekistonning manfaati uchun o‘lishga ham tayyorman, deb javob beraman”.

madhiya, pul, amiya, chegaralari bor, ammo ularga qo‘shimcha yana qandaydir notugallik ham borday edi. Tasavvur qiling, hamma narsa bor, lekin bular hech narsani o‘zgartirmaganday taassurot uyg‘onadi... Bizda xuddi shunday edi. Bu tushkun kayfiyat, mohiyatiga ko‘ra, bizni Said nazariyasi (orientalizm)ga yaqinlashtirib turardi. Ha, anglayotganingizdai, O‘zbekistonning davlat sifatida milliy “kim”ligidan bo‘lak hamma narsasi bor edi. Uning qalbi — o‘zligi yo‘q edi. U bir asrdan ortiq vaqt nari “sug‘urib” olingan qalbini qidirayotgan, uningsiz o‘zini notugal va noraso sezayotgan edi. Men go‘zal shoirimiz, ulug‘ jadid, Stalin qatag‘oni qurboni Abdurauf Fitratning bir zamonlar “Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi, senga ne bo‘ldi?...” deya o‘tli nido berganini bugun yaxshi tushunaman: u qalbsiz qolgan vatanining, millatining poyida hammasini tushunib, yurakdan anglab faryod qilgan ekan... O‘zligi, kimligi, keng ma‘noda aytganda, qalbi sug‘urib olingan millat qaram yoki xoslar davrasidagi “o‘zga” bo‘ladimi, yo‘qmi?! Men so‘zim avvalida Said va uning nazariyasi — “orientalizm” haqida shuning uchun gapirgan edim.

Shaxsiy qarashlarimga ko‘ra, Shavkat Mirziyoyev buni avvaldan teran anglagan. Negaki, u rahbarlikka kelibog mustaqillikning deyarli 26 yili davomida gapirilmagan, hatto ba‘zan taqiqlangan mavzularni o‘rtaga olib chiqdi.

Turkiy xalqlar bobokaloni Bilga Xoqon bitiklaridan siyosiy matnlarga iqtiboslar olindi, minbarlardan gapirildi. Eng hayratlanarlisi, mafkuraviy bayramimiz bo‘lmish mustaqillik tantanalarida yozilganidan buyon tabu urilgan “Go‘zal Turkiston” she‘ri qo‘shiq qilib aytili. Fitrat juda ko‘p tilga olindi. Mustabidlik davrida qatag‘on qilingan yuzlab millat oydinlari, jumladan, shu paytgacha bizga “bosmachi” deb o‘rgatib kelingan milliy harakat a‘zolari Oliy sud tomonidan oqlandi. Toshkentda jadidlar ilmiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya tashkillashtirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston tarixida ilk bor BMT minbaridan turib o‘zbek tilida nutq qildi... Mamlakatda diniy, siyosiy va so‘z erkinligiga yo‘l berildi. “Qora ro‘yxat”lar, eng asosiysi, O‘zbekistonni dunyoga mustaqillikdan keyin ham eski zamonlardagidek ko‘rsatib turadigan paxta yakkahokimligi, majburiy, ayniqsa,



bolalar mehnatidan voz kechildi. Butun dunyoga ovoza bo‘lgan, siyosiy va diniy mahbuslar saqlanadigan Qoraqalpog‘istonning “Borsa kelmas”idagi “Jasliq” hibsxonasi yopildi...

Bu sanaganlarim haqli ma‘noda bugungi O‘zbekistonni kechagisidan farqlashga xizmat qildi. Qolaversa, akademik nuqtayi nazardan aytadigan bo‘lsak, juda sokin va ortiqcha shov-shuvlarsiz amalga oshirilgan ayni harakatlarni davlat va jamiyatning milliy o‘zlikka intilishi, kolonial va neokolonial bosimlardan qochish deb sharhlasak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Men Shavkat Mirziyoyev davrida jamiyatni yangilash, sovet tutumlaridan voz kechish jarayonlarini jadallashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar qilindi, deya olaman. Keling, sizga ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir misolni keltiraman.

Sovet zamonida barcha ittifoqdosh respublikalar poytaxtlari qatori Toshkent markazida ham “bosh maydon” bor edi. Lenin maydoni deb atalmish ushbu go‘shada qizil dohiyning muhtasham supaga o‘rnatilgan baland haykali qad rostlab turardi. Mustaqillikdan keyin proletariat otasining bronzadan quyilgan sismosi “yiqitildi”. Maydon esa deyarli shunday qoldi. Faqat Lenin joy bo‘shatgan o‘sha supada endi yer sharining maketi paydo bo‘ldi. Globus markaziga bilinar-bilinmas tortilgan hoshiya ichiga “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yildi va joy nomidan Lenin olinib, mustaqillik so‘zi qo‘shib qo‘yildi. Shunday qilib, bu joy Mustaqillik maydoniga aylandi. Anglashilishicha, ozodligimizning mazmuni shu edi, xolos...

Yangi O‘zbekistonda ushbu masalaga jiddiyroq yondashildi. Ya‘ni ayni go‘sha inkor qilinmagan holda poytaxt biqinida “Yangi O‘zbekiston” bog‘i bunoyd etildi. O‘mi kelganda aytay, ba‘zilar “bizda Mustaqillik maydoni bor edi, yana bitta shunday majmua bo‘ladimi?” degan chalkash tasavvurga bordi. Ammo bu xato fikr edi. Ayniqsa, g‘oyaviy nuqtayi nazardan. Mustaqillik maydoni, hali aytganimga, sobiq Lenin maydoni o‘mida paydo bo‘lgandi.

Hatto uning badiiy landschaftida — ifoda uslubida ham keskin milliyilashirilgan va markazlashgan tugal mafkura yo‘q edi. Qolaversa, u mundarija nuqtayi nazaridan nihoyatda chegaralangandi. Avvaliga o‘sha eski supa markaziga O‘zbekiston so‘zi yozilgan yer sharining nusxasi o‘rnatildi. Bu mohiyatan dunyoda shunday bir yangi davlat paydo bo‘lganini anglatardi. Qolaversa, kamtarona va sezilarli hadik aralash bizning ozodligimizni anglatishga yo‘naltirilgandek edi, nazarimda. Lekin minglab yillik tarixga ega buyuk millatimiz faqat qaramlikda yashagan emas, balki uning yuqorida aytganimizdek, dunyo xalqlari havas qiladigan shonli o‘tmishi, o‘lmas qahramonlari, ular ko‘rsatgan mislsiz jasoratlar, buyuk va betimsol madaniyati bor.

Shavkat Mirziyoyev mazkur bog‘ni barpo etishni o‘ylar ekan, ayni shu motivni nazarda

Shu ma‘noda aytganda, bugun nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki madaniy-gumanitar sohalarida kechayotgan yaqinlashuv ming yillardan buyon qo‘shni yashab kelayotgan xalqlarning bir-birini tushunishi, bahamjihat, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i kabi global loyihalar o‘z samimiyati va haqqoniyligi, mintqa xalqlari e‘tiborini bir nuqtaga jamlashi bilan nihoyatda ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Bunday yirik g‘oyalar biz uchun bugun nihoyatda zarur.

O‘ylaymanki, savollaringizning hech biri ko‘zdan panada qolmadi.

— Rahmat! Yana bir savolim bor. Hamma ko‘rib turibdiki, bugun Markaziy Osiyo atrofidagi geosiyosiy vaziyat o‘zgarmogda. Bu mintaqada yangi aktorlar paydo bo‘layotganini ham anglatadi. Tabiiyki, bu holat ikki lokomotiv davlat — O‘zbekiston va Qozog‘istonning ichki hamda tashqi siyosatida muayyan o‘ng‘aysizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, qaysidir kuch iqtisodiy manfaatini ko‘zlab bosim qilsa, boshqa biri mafkuraviy-siyosiy nuqtayi nazardan bu davlatlarni geosiyosiy obyekt maqomida ushlab turishga urinadi. Aytgich, O‘zbekistonga shunday bosimlar bo‘lsa, amaldagi hukumat — Prezident Mirziyoyev qaysi global kuch tomonida bo‘lishi mumkin?

— Juda qiziq, Prezidentimiz xuddi shu yo‘sinda savollar bo‘lishini bilgandek, joylardagi ma‘nzarlarda bu haqda aniq va lo‘nda to‘xtalgan. Masalan, 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining yig‘ilishida Shavkat Miramonovich bunday degan edi:

“Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur‘atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmogda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermogda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiqa hammamiz guvohmiz”.

Xuddi o‘sha yili Surxondaryo viloyatidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqida esa siz so‘ragan savolning aynan o‘ziga javob bergan ekan. Mana, davlatimiz rahbari bu haqda nimalar degan:

“Hozir katta-katta davlatlar: “O‘zbekiston, sen kim tarafda? Bo‘ldi endi, neytral bo‘lib yurishing bo‘ldi, yo u tomonga o‘tgin, yo bu tomonga o‘tgin”, deya qattiq-qattiq aytib, vakillari ham kelib, shunga da‘vat qilyapti. “O‘rta Osiyoda O‘zbekiston bizga kerak, 36 million bo‘ldi, 3-4 yilda 40 million bo‘ladi, katta davlat bo‘ladi, kim tarafsan?” deyapti. Qarang, shunday og‘ir savolga qanday javob berish kerak? Javob bitta: bir tomonman, millatim, xalqim, buyuk O‘zbekistonning manfaati uchun o‘lishga ham tayyorman, deb javob beraman”.

Siz bergan savolga bundan ham aniq va lo‘nda javob berish mumkinmi?!

— Rahmat. To‘g‘risi, suhbatimizdan katta zavq oldim. Men qiziqqan mamlakat haqida, uning kechagi va bugungi hayoti hamda tarixi haqida ko‘p narsalarni bilib oldim. Ayniqsa, menga “Yo‘qotilgan qalb” haqidagi izohingiz juda yoqdi. Darhaqiqat, qalbning yo‘qolishi ma‘naviy qaramlik, quillikning aynan o‘zi ekanini hech o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Eshitganlarimdan xulosa chiqardimki, bugun O‘zbekiston o‘z identikligini, o‘z “men”ini yoki sizning so‘zingiz bilan aytganda, o‘z “qalb”ini topgan. O‘ylaymanki, sizning fikrlaringizni to‘g‘ri tushundim.

— Ha, mutlaqo to‘g‘ri! Sizga yana bir bor katta rahmat!



Islohotlar samarasi



**Bu galgi suhbatimiz Uchinchi Rennessans poydevorini qo'yish, xalqimizning yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi atrofida birlashishi haqida bo'ldi. Hamkasblar bilan maqola mavzularini muhokama qilayotib, beixtiyor gap ravishi suhbat-maqola yo'siniga tortib ketdi. Shu bois, bugungi davra suhbatimiz bitta mavzuda emas, mantiqan bir-birini to'ldiradigan muayyan yo'nalish, sohalar haqida kechdi.**

### Sarvar To'rayev, Surxondaryo viloyati:

— Davlatimiz rahbari 2016-yil 20-sentabr kuni Angren shahriga tashrif buyurib, ilk bor maktablarga ta'lim tashkilotiga borgan va farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishimiz kerakligi, tizimni tubdan yangilash zarurligi, ota-onalarning ko'p yillik orzu-armonlarini ro'yobga chiqarish hayot-mamot masalasi ekanini kuyunib gapirgandi. O'ylab ko'rsam, yangi O'zbekistonni bunyod etish ishlari o'sha paytdayoq boshlangan ekan.

Tarixdan ayonki, faqat markazlardagina emas, yurtning eng chekka hududlarigacha ilm-ma'rif, madaniyat va san'at kirib borsa, odamlarning dunyoqarashi kengaysa, vatan haqidagi tushunchalar ko'ngillarda sobitlik qilsa, mamlakat chinakamiga rivojlanadi. Avval ilm-ma'rifati markazi deya faqat Toshkent shahri ko'rilardi. Shu bois, barcha poytaxtda oliy ta'lim olishga intilardi. Bugun bunday qarashlar o'zgardi. Jamiyatdagi qarashlarni o'zgartirish uchun jiddiy islohotlar bo'lishi kerak. Surxondaryo misolida aytak, qisqa vaqtda Termiz ilm-fan va madaniyat, ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Masalan, viloyatda o'tgan asrning 60-yillaridan toki 2017-yilga qadar bittagina oliyog'hi — Termiz davlat universiteti bor edi. So'nggi 7 yilda ularning soni 5 tadan oshdi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti misolida olis tumanlarga ham oliy ta'lim kirib borganini e'tirof etish kerak. Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali tashkil etildi. Imom Termiziy nomidagi islom instituti va Imom Termiziy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi ochildi. Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti faoliyat boshladi. Sohaga xususiy sektor kirib keldi. Nodavlat oliyog'holar,

### Farhod Ne'matov, Jizzax viloyati:

— To'g'ri aytingiz, Sarvar. Yangi O'zbekistonda amaliy ishlar bilan xalqni rozi qilish siyosati ustuvor. Buni keyingi yillarda ijtimoiy xizmat yo'nalishida ham ko'rish mumkin. “Inson qadri uchun” boshlangan islohotlar tenglik va adolatni tikladi. Xizmat ko'rsatish turlari va shakli butunlay o'zgarib, sohaga zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilindi. Raqamlashtirilgan tizim orqali ijtimoiy yordamning aholiga tez va oson ko'rsatilishi, e'tiborga muhtoj har bir fuqaroning ehtiyojini aniq va samarali qondirish imkonini yaratildi. Bu o'zgarishlar haqida forishlik Norbibi Roziqova bunday deydi: “Mahallamizga birlashtirilgan ijtimoiy xodim uyimizga kelib, sharoitimizni o'rgandi. Sanatoriya dam olishim kerakligini aytdim. U kompyuter orqali Jizzaxdagi sanatoriya onlayn navbatga qo'ydi. Bir oydan so'ng telefonimga xabar keldi. Bepul dam olib, sog'lig'imni tiklab keldim. Ilgari bunday imkoniyatlardan foydalanish qayog'da edi”.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i Nodirbek Sharipov bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning o'tgan oylarida viloyatdagi ehtiyojmand, yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan 452 fuqaro maxsus reyestrga kiritilgan. 178 nafari yolg'iz keksa, 140 nafari nogironligi bo'lgan shaxs. Ularning 53 nafariga maxsus ijtimoiy assistentlar tomonidan muntazam xizmat ko'rsatilmoqda.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**

### G'olib Abdusalomov, Navoiy viloyati:

— Akbar aka, aytganlaringizni tinglab, oilada baxtli insonlar barcha joyda baxtiyorlik degan hikmatni esladim. Oila, uy xalqimiz uchun kichik vatan tushunchasi bilan uyg'un yuradi. Shu bois, keyingi yillardagi bunyodkorlik ishlarni e'tirof etishimiz adolati bo'ladi.

Barpo etilayotgan “Yangi O'zbekiston” massivlari juda ko'plab yurtdoshlarimizga quvonch ulashyapti. Masalan, Chinnigul Temirova Karmana tumani xotin-qizlar bo'limiga murojaat qilgan, ammo muammosi ijobiy yechim topishiga unchalik ham ishonmagandi. Unga 2023-yilning oktabr oyida ehtiyojmand oila sifatida 1 xonali uy berildi.

Besh yil ijara uylarda yashadim, hech qachon o'z uyim bo'ladi deb o'ylamaganman, — deydi Chinnigul Temirova. — Sababi, topish-tutishim ro'zg'ordan ortmaydi. Bir yozda farzandim parvarishi ko'proq ishlashga imkon bermasdi. Shu bois, umidsiz vaziyatda edim. Hozir o'z uyim bor. Hech kim ijara haqini so'rab kelmaydi. Uyimiz yaqinida zamonaviy bog'cha qurilgan. Farzandim o'sha yerda tarbiyalanmoqda. O'zim bemalol ishlayapman. Bu quvonchini so'z bilan ifodalay olmayman.

Albatta, inson qadri va manfaat ulug'langan yurtimizda bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda davom etyapti. Demak, hali yana ko'plab oilalarga bunday baxt kulib boqadi. Masalan, Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda “Yangi O'zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni asosida ishlar jadal davom etmoqda. Xususan, Karmana tumanida 21 gektar joyda “Yangi O'zbekiston” massivi qad rostlamoqda.

### Rasuljon Kamolov, Farg'ona viloyati:

— To'g'risi, eng katta yutuq xalq roziligiga erishishdir. Biz osongina aytayotgan Uchinchi Rennessansga asos solish aslida juda mashqatli yo'l. Sarvar gapni ta'limdan boshlab yaxshi qildi. Ta'lim taraqqiyotining o'q ildizi. Lekin ta'lim olishga ehtiyoq, imkoniyat bo'lishi uchun oilalar tinch va iqtisodiy barqaror bo'lishi shart. Shu bois, xotin-qizlar bandligi, tadbirkorligiga berilayotgan e'tibor keyingi yillardagi eng katta islohotlardan biri bo'ladi. Natijada tandir-o'choqdan boshi chiqmaydigan qishloq ayoli jamiyatning faol a'zosi ga aylandi.

Fakt bilan aytak, Uchko'prik tumanidagi Oqsuv mahallasida yashaydigan Yulduzxon Qodirova ishsiz edi. “Qo'qon” erkin iqtisodiy zonasi shu tumanidagi hududida “Thermo Tech” MCHJ tomonidan metall panelli radiatorlar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilgan, ko'plab yoshlar uchun yangi imkoniyat eshigi ochildi. Shular qatorda Yulduzxon Qodirova ham ish bilan ta'minlandi.

Mahallamiz yaqinida zamonaviy korxona tashkil etilgani ayni muddda bo'ldi, — deydi dastgohlarni mahorat bilan boshqarayotgan Yulduzxon. — Ishchi-xizmatchilar uchun alohida shart-sharoitlar yaratib berilgan. Maoshimizni o'z vaqtida olavpmiz, bepul tushlik, uzoqdan kelib ishlaydiganlarga maxsus transport ajratilgan. Korxonamizda 30 santimetrdan 3 metr gacha bo'lgan metall panelli radiatorlar ishlab chiqarilmoqda. Italiya va Turkiyadan olib kelingan texnika va texnologiyalarni boshqarayotgan ishchi-xizmatchilarning katta qismi yoshlardir. Xorijlik mutaxassislar bizga kasb sirlarini o'rgataypti.

Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Komila Kavlanova bergan ma'lumotga ko'ra, viloyatda birgina “Ayollar dafnari” tizimi asosida o'tgan besh yil davomida

### Minajatdin QUTLIMURATOV, Qoraqalpog'iston Respublikasi:

— Endi so'z navbati bizga, jigitlar! Hammangiz katta o'zgarishlar haqida aytingiz. Bu yil yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e'lon qilingan edi. Shundan kelib chiqib, yurtimizdagi islohotlarning barchasini o'zida jamlagan bir jihat haqida aytmoqchiman.

“Yangi O'zbekiston” gazetasidagi maqolalarni qoraqalpog' tiliga tarjima qilish jarayonida bir narsani bildim, o'zbek tilida “yaxshilik” va “yashillik” so'zlari shaklan ham, mazmunan ham o'xshash ekan. Shu bois, yangi O'zbekistondagi islohotlarni yashil, yaxshilik siyosati deb atagan bo'lardim. Bu har jihatdan mos tushadi. Shu paytgacha Orol muammosi haqida barcha gapirdi. Takliflar o'rta qatashladi, muhokamalar qilindi. Biroq tan olaylik, tayinli ish bajarilmagan edi. Prezidentimiz 2018-yil 15-16-noyabrda Qoraqalpog'istonga tashrif buyurganda barchasi o'zgardi. Davlatimiz rahbari Orol dengizining suvi qurigan tubida yashil qoplamali himoya o'rmon yaratish borasida mutasaddilarga topshiriq berdi. To'g'risi, aniq natija ko'rinnmaguncha yangi loyihaning samarasiga ko'pchilik ishonqiramay qaradi. Biroq vatanimizning har bir qarich yerini biladigan, undagi muammolardan xabardor davlatimiz rahbari ularning yechimini ham aniq aytgan edi.

Ana shu tashabbus asosida Orol dengizining suvi qurigan maydoni tubdan o'zgardi. Fazodan qaragan odam qo'ng'ir tusli cho'l o'rni yashil makonni ko'radigan bo'ladi. Birgina joriy yildagi ishlarni tahlil qilsak. Bu yil mavsumda o'rmonlashtirish ishlari uchun saksovu, qoraburoq kabi cho'l o'simliklarining 413 tonna urug'i terib olindi. Bundan tashqari, joriy mavsumda 71,9 ming gektar maydonda cho'l o'simliklari ekildi. Shundan 71 ming gektarga o'simlik urug'i sochildi va 0,9 ming gektarga ko'chik ekildi.

### Akbar Rahmonov, Qashqadaryo viloyati:

— Rasuljon aka, rost gap, inson qadr topgan joyida baxtlidir. To'g'risi, uzoq yillar bizning og'riqli nuqtamiz mehnat muhojirlarimiz edi. Ular siz aytganday katta iqtisodiy loyihalar yo'qligi sabab uydan olisga ketib ish axtarishga majbur edi. Kamiga haq-huquqlari himoya qilinmasdi. Bugun mehnat muhojirlariga munosabat ham tubdan o'zgardi. O'zbekiston o'z fuqarolarini dunyoning barcha hududida himoya qilishga jiddiy e'tibor bermoqda. Hozir xalqaro darajada haq-huquqlarimizni himoya qilish haqida aytaypman-u, masalalar yechim topishi kerak bo'lgan mahalla tizimi ma'lumotoma beradigan idorga aylanib qolgan yodimga tushdi. Bugun mahalla tizimi ham tubdan o'zgardi. “Mahalla yetitiligi” uyma-uy yurib, masalalarga o'sha joyning o'zida yechim beraypti. Masalan, ko'kdalaliq Botir Abdusalomov chorasizlik sabab uylar xorijda ishladi. U o'tgan yili xorijdan qaytgandan xabar topgan mahalla faollari Botir bilan suhbatlashish uchun uyiga keldi. Xonadonidagi sharoitni o'rgandi. Faollar uning qiziqishlariga quloq tutdi. Bundan mamnun bo'lgan yosh yigit imkoniyat bo'lsa, biznes qilmoqchi ekanini aytdi.

To'g'risi, avvaliga mahalla faollari hujjat to'ldirish uchun shunchaki so'rab kelgan-da, deya o'yladim, — deydi Botir Abdusalomov. — Aksincha, ular orzularim sari yo'l ochish uchun yo'l q'lagan ekan. O'rganishdan so'ng menga tuman markazidagi sanoat zonasidan joy berildi. Tadbirkorlikni boshlash uchun mablag'ga zarurat borligini aytgandim, yoshlar yetakchisi bir yarim milliard so'm kredit olishimga ko'maklashdi. Bu esa tarmoqni kengaytirishimga yanada qo'l keldi. Orzularim amalga oshdi. Endi boshqalar ham o'zim kabi oilasi bag'rida baxtli yashashga ko'maklashyapman. Xorijga ketmoqchi bo'lgan ayrim yoshlarni korxonamga ishga olaypman.

Yaqindagina ish boshlagan yosh tadbirkor bugun ichimlik suvni

qadoqlaydigan kattagina sex rahbari. Shuningdek, u non va non mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi ham tashkil etgan. O'tizga yaqin ish o'rni yaratib, ishchilariga to'rt-besh million atrofida maosh beraypti. O'z brendi ostida bir kunda 10 tonnaga yaqin suv qadoqlab, savdog'a chiqarmoqda. Non mahsulotlari esa bozor rastalarini to'ldirib turibdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Qashqadaryo viloyatida 71 ming 661 fuqaro mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan. Bandlikka ko'maklashish markazlari, “mahalla yetitiligi” tashabbusi bilan ularning 70 ming 452 nafari turli ishlarga joylashtirilgan. Joriy yilning o'tgan olti oyi davomida 13 ming 616 kishi xorijdan kelgan. Shundan hozirga qadar 7679 nafarining bandligi ta'minlangan. E'tibor qiling, biz yarim yillik misolida minglab taqdirlar o'zgartgani haqida aytaypamiz. Birgina mehnat muhojirining o'z uyida daromadli bo'lib, oilasidan uzoqqa ketmasligiga erishish katta natija. Chunki o'sha bitta shaxs ortida qanchadan qancha farzandlar, ota-onalar, guruhdan g'ang'chi kabi yaqinlarining quvonchi bor. Bu oila mustahkamligi, turli ruhiy bosimning yo'qolishi degani.

Islohotlar juda yaxshi samara berayotganini ko'rsatadi. Masalan, joriy yilda soha mutaxassislari “Yoshlar balansi”ni shakllantirishda migratsiyada yurgan yoshlar tahlilini qildi. Unga ko'ra, viloyatda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 710 ming 713 nafar. Ularning 2,2 foizi migratsiyada ekani ma'lum bo'ladi. Ular nafaqat ish, balki o'qish, davolanish va boshqa sabablarga ko'ra chetga ketgan. Bugunga qadar migratsiyadan qaytgan 3679 yoshning bandligi ta'minlandi. Doimiy ishga joylashtirish, subsidiya asosida asbob-uskuna olib berish, imtiyozli kredit yoki dehqonchilik uchun yer ajratish, kasb-hunarga o'qitish kabi chora-tadbirlar orqali ularidan muayyan qismining bandligi ta'minlandi.

**Suhbatni Boboravshan G'OZIDDINOV uyushtirdi.**





# YOSHLAR — YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI



O‘zbekiston yoshlari — yangi tarix yaratadigan oltin avlod. Chindan ham, ularga shunday baho bersak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har sohada faol bo‘layotgan bugungi yoshlarimiz mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shish bilan birga, yurtimiz nomini dunyoga keng tanitayapti ham. Bu yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati samarasidir. Zotan, endi yangi O‘zbekiston yoshlari, chin ma’noda, kelajak bunyodkorlari sifatida kuch, bilim va mehnatlari bilan o‘zlarini namoyon etmoqda. “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” shiori ostida mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga keng tayyorgarlik ko‘rilarayotgan shu kunlarda yurt ravnaqi yo‘lida mehnat qilayotgan ayrim yoshlarimiz fikrlari bilan qiziqdik.



## TABIIY MAHSULOT BILAN JAHON BOZORLARINI EGALLAYMIZ

**Sherzod NIYAZIMBETOV, “Biogumus” fermer xo‘jaligi rahbari, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi:**

— Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetini tamomlab, iqtisodchi bo‘libmanki, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga hissa qo‘shishim va bu yo‘lda o‘z o‘limni topishim kerakligi haqida o‘ylayman. Shu ma’noda, o‘zim tug‘ilib o‘sgan Qoraqalpog‘ yerlarida 2018-yildan buyon pomidorni quyoshda quritib, Fransiya, Italiyaga eksport qilaymiz. Korxonamizda 200 ga yaqin mavsumiy va doimiy ishchilar bo‘lib, asosan, qishlog‘imizdagi ayol-qizlarni qabul qilganmiz.



Mahsulotimizga talab yuqori. Jahon standartlariga javob beradigan bir nechta sertifikatlar ega ekanimiz mijozlarimiz ishonchiga xizmat qiladi. Ekologik toza mahsulot tayyorlashda bizga Qoraqalpog‘istonning iqlim sharoiti juda qo‘l keladi. Pomidorni tabiiy usulda yetishtirish barobarida quritishni ham shu usulda amalga oshiramiz. Tabiiy sharoitimiz pomidorni uch kundayoq quritib olish imkonini beryapti.

Prezidentimiz bilan Yoshlar kuni bayramida uchrashib, shu gaplarni aytganimga, “Bu faoliyatning megaloyiha qilish uchun nima kerak?”, deb so‘raganlarining o‘ziyoq korxonamiz jamoasiga katta dalda bo‘ldi. Men buning uchun salohiyatimiz, sharoitimiz yetarli ekanini aytdim. Davlatimiz rahbari esa bor

## EL ROZILIGIGA ERISHISH OLIY MAQSADIM



**Bahodirbek NABIJONOV, Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi qon tomir xirurgiyasi va buyrak transplantatsiyasi bo‘limi jarrohi, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi:**

— Bugun zamon shiddat bilan rivojlanyapti. Tibbiyotning eng ilg‘or usullarini tatbiq etish, murakkab kasalliklarni samarali davolash talabi har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalarini o‘zlashtirish bemorlarga sifatli hamda samarali xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.

2022-yilda Rossiya’dagi akademik I.Shumakov nomidagi transplantologiya va sun‘iy organlar milliy tibbiyot ilmiy-tadqiqot markazida malaka oshirdim. 2023-yil mart oyida Toshkentda Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida qon-tomir xirurgiyasi mutaxassislignini oldim. Ayni paytda Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida angioxirurg-transplantolog bo‘lib ishlayapman. Qon-tomir kasalliklari bo‘yicha 50 dan ortiq, buyrak transplantatsiyasi amaliyoti bilan bog‘liq 500 dan ortiq murakkab operatsiyalarda bevosita ishtirok etdim.

Bundan tashqari, ehtiyojmand aholi salomatligini mustahkamlash, ko‘rsatiladigan malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni aholiga yaqinlashtirish maqsadida qon-tomir xirurgiyasi va buyrak transplantatsiyasini joylarga borib o‘tkazib kelaymiz.

O‘tgan yili Yoshlar kuni munosabati bilan “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlandim. Bu mukofot nafaqat mening, balki tibbiyot markazida men kabi odamlar dardiga daron



bo‘lishni istagan barcha yosh shifokorlarning mehnatiga berilgan baho bo‘ldi.

Prezidentimiz qo‘lidan “Kelajak bunyodkori” medalini olar ekanman, Turkiya, Hindiston, Rossiyada bajarilayotgan murakkab jarrohlik amaliyotlarini nafaqat o‘zim ishlayotgan Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida, balki tug‘ilib o‘sganim — Bag‘dod tumanida bajarish, odamlar dardiga daron bo‘lish niyatim borligini aytdim.

Bugun yuqori texnologik amaliyotlar nafaqat respublika, viloyat markazlarida, balki eng chekka va olis hududlarda ham o‘tkazilmoqda. Joriy yilda markazimizga respublika bo‘yicha 28 ta tuman biriktirilgan. Ana shu tumanlarda murakkab jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazyapmiz.

Misol uchun, yaqinda Xorazm viloyati Gurlan tumanida yana bir yuqori texnologiyali operatsiya o‘tkazishga to‘g‘ri keldi. Ilgari odamlar davo izlab chet elga ketardi. Begona yurt, begona odamlar, moddiy qiyinchiliklar, til bilish bilan bog‘liq muammolar bor. Vaqt, mablag‘dan tashqari, jonini ham xatarga qo‘yib, begona yurtda sarson bo‘lib yurish har qanday oilani charchatadi. Shukrki, bugun ana shu sarson-sargardonlikka o‘rin qoldirilmayapti. Transplantatsiya amaliyoti yurtimizda muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Bemor yuzidagi tabassum biz — shifokorlarning ko‘nglini o‘stiradi. Zero, ularning salomatligi, hayoti uchun doim mas’ulmiz. Bemor bilan birga aziyat chekamiz, kasallikka qarshi birga kurashamiz. Shifokor uchun eng katta mukofot ham elning roziligi.

## NEGA “APPLE”NI TASHLADIM?



**Sadoqat QOZIYEVA, IT mutaxassisi, “Shuhrat” medali sohibi:**

— Yigirma yil avval Buyuk Britaniyaga, u yerdan Amerikaga borib, nufuzli kompaniyalarda zamonaviy sohalar, xususan, axborot texnologiyalari bo‘yicha tajriba oshirganimga, mamlakatimizda bu soha vakillari juda kam edi. Keyingi yillardagi ulkan o‘zgarishlar, barcha sohalardagi islohotlar O‘zbekistonda ham zamonaviy kasblar keskin rivojlanishiga xizmat qilayotir. Eng quvonarli, so‘nggi 5-6 yil mobaynida IT sohasi hayotimizga shiddat bilan kirib keldi. Bu biz kabi soha vakillariga yangi-yangi g‘oyalar, kuch-g‘ayrat va ilhom beradi.

Mendan nega Amerikani, “APPLE”ni tashlab keldingiz deb so‘raydigan aksariyat vatandoshlarga beradigan javobim ham shu, aslida. To‘g‘ri, Amerika o‘ziga xos diyor, texnika taraqqiy etgan davlat. Ammo bugun O‘zbekistonda ham zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash salohiyati sezilarli darajada oshdi. IT mutaxassislari, umuman, kelajak kasblari egalari yuksak qadrlanyapti. Ayniqsa, xotin-qizlarni bunday sohalarga jalb qilishga katta e’tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor. Bu imkoniyatdan foydalanib, xorijda yurgan kezzar dilga tukkanim — o‘zbekistonlik ayol va qizlarni IT sohasiga keng jalb qilishga erishyapman. Ayni paytda Yunusobod tumanida joylashgan shinamgina ofisimizda 50 dan ziyod ishchi bor. Yaqinda turmushga chiqqan, farzandi bor bir ayol

## DUNYO FUTBOLI SAHNASIDA KUCHLI BO‘LISHIMIZ SHART!

**O‘tkir YUSUPOV, Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi darvozaboni:**

— Futbol bo‘yicha jahon chempionatiga yo‘llanmani to‘g‘ra kiritganimiz shukhi qalblarni tark etgani yo‘q. Tarixiy lahzalarni har gal eslasam, ko‘nglim entikib ketadi.

“O‘zbekiston jahon chempionatiga yo‘l oldi” degan so‘zlarni eshitish juda hayajonli. Bu faqat men uchun emas, har bir o‘zbek uchun faxr, baxt va tarixiy yutuqdir. Buning zamirida zamonaviy stadionlar, tayyorgarlik jarayonlarida zamonaviy yondashuvlar, umuman, yaratilgan shart-sharoit, e’tibor yotadi.

Keling, yana bir bor tarixiy g‘alaba onlariga nazar tashlaymiz. Menimcha, burilish nuqtasi Laosdagi safar o‘yinida yuz berdi. Bosim juda katta edi. Lekin yuragimda “Biz bunga qodirmiz”, degan bir his ustun edi. Jamoa yurakdan harakat qildi, bor kuchimizni berdik. O‘sha o‘yindan keyin ichki bir ovoz: “Bu safar rostdan ham g‘alaba qozonamiz”, der edi.

Eng katta o‘zgarish — ishonch va professionalligimiz ortdi. Murabbiylar, futbolchilar, butun tizimda yangicha fikrlash paydo bo‘ldi. Har bir harakat aniq reja asosida tashkil etildi. Har bir o‘yinga puxta tayyorlandik, raqiblarimizni chuqur tahlil qildik. Eng muhimi, hammamizda istak va ishonch kuchli edi.

Orzular qachondir ro‘yobga chiqadi. Faqat umidni uzmaslik, mehnat va intilishni tark etmasligi kerak. Men ham bolaligimda jahon chempionatini tomosha qilib, bir kun biz ham dunyo futbol maydonida eng kuchli jamoa bilan bellashamiz, jahon chempionatiga chiqamiz deb



orzu qilardim. Endi bu orzu ro‘yobga chiqdi. Bizdan keyingilar ham marrani baland olishi kerak.

Albatta, g‘alaba biz uchun katta sharaf. Prezidentimiz tomonidan e’tirof etilish — mehnatimiz eng yuqori darajada qadrlanayotganini bildiradi. Qolaversa, eng katta mukofot — xalqimizning duolari va oilam ko‘zidagi quvonch edi.

Hozir yutuqlarga mahliyo bo‘lib o‘tirish payti emas. Jahon chempionatiga tayyorgarlik juda qizg‘in ketmoqda. Jismoniy tayyorgarlik muhim, albatta, lekin ruhiy chidam, taktik tayyorgarlik va raqiblarni chuqur o‘rganish ham shunchalik a‘lo bo‘lishi kerak. Murabbiylar shtabi bilan birgalikda yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rishga harakat qilaypmiz, chunki dunyo futbol sahnasida har jihatdan kuchli bo‘lishimiz shart.

imkoniyatlarni ishga solib, dunyo bozorlariga kirib olishimiz kerakligini ta’kidladi. Nasib qilsa, yerimizni kengaytirib, ishonchni oqlaymiz.

“Ta’qdimotimiz davlatimiz rahbariga juda ma’qul bo‘ldi. Sababi gaz, elektr energiyasi ishlatmasdan, qo‘l mehnatidan foydalangan holda ko‘plab ishchi o‘rinlari yaratib, Yevropa bozorlariga mahsulot yetkazyapmiz. Mamlakatimiz eksport salohiyatida kamxarj, yangi yo‘nalishni ochib bera olganimiz ko‘p bor e’tirof etilgan. Qolaversa, Italiya, Fransiya, Yevropa bilan hamkorlikning ertasi yorug‘, albatta. Shu o‘rinda aytish joizki, mahsulotimiz italiyaliklarning milliy taomlaridan biri hisoblanadi.

Istiqboldagi asosiy maqsadlarimizdan biri konserva zavodini qurish. Konservangan mahsulotni nafaqat ichki bozor, balki Rossiya va boshqa qo‘shni davlatlarga ham eksport qilishni rejalashtiryapmiz. Shuningdek, endilikda uzoq chet davlatlarga ham yetkazishni ko‘zda tutganmiz. Zero, bizda bu mahsulotni yetishtirishga, qayta ishlashga, yuqorida aytganimizdek, tayyor mahsulot qilishga ham barcha sharoitlar muhayyo. Jahondagi eng yetakchi pomidor qo‘qi yetishtiruvchilardan biri Turkiya yoki Yevropa bilan solishtiradigan bo‘lsak, iqlim nuqtayi nazaridan ham, tannarx jihatidan ham bizda ustunlik bor. Shu ma’noda, korxonamiz e’tiborga tushgan. O‘zbekistonda eng yaxshi 30 nafar yosh tadbirkorlar qatoriga kirganim menga doimiy ko‘tarinkilik berib turadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengening eng yosh deputati sifatida ham shuni ishonch bilan aytamanki, bugun mamlakatimizdagi yaratuvchan yoshlar faoliyati doim davlatimiz e’tiborida. Bunday yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdan, boshqalarga ibrat sifatida ko‘rsatishdan mamlakatimiz har tomonlama manfaatdor ekanini Prezidentimiz ko‘p bora ta’kidlaydi. Shunday ekan, vatan uchun, xalq uchun, millat uchun naf keltirish yo‘lidan og‘ishmaylik.

## LOYIHA ICHIDAGI LOYIHA YOSHLARNING TIL O‘RGANISHIGA KATTA TURTKI BERADI

**Rustam QORIYEV, “Ibrat farzandlari” nodavlat notijorat tashkiloti boshqaruvi raisi:**

— Har bir mamlakatning jahon miqyosida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy integratsiyalashuvi uning mehnat bozorida talabgir, yetuk kadrlar zaxirasi bilan bog‘liq. Yurtimizda ta’lim sohasida kechayotgan tub o‘zgarishlar bu boradagi islohotlarning eng muhim jarayonlari sanaladi.

Xorijiy tillarni chuqur o‘rgatishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, o‘qituvchi va yoshlarning chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“Ibrat farzandlari” loyihasi ham yoshlarning bepul til o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyat. Loyiha xorijiy tillarni bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o‘rgatishni maqsad qilgan.

Loyiha O‘zbekistonda birinчилardan bo‘lib xorijlik mehmonlar uchun o‘zbek tili va grammatikasini o‘rgatishni nazarda tutadi.



Bugungi kunda 22 ta xorijiy til, xorijliklar uchun o‘zbek tili, savodxonlik darslari, imo-ishora tili, IELTS, TOEFL, IT-English kurslari o‘rgatib kelinmoqda.

“Ibrat farzandlari” loyihasi ham yoshlarning bepul til o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyat.

“Ibrat farzandlari” loyihasi qisqa vaqt ichida You Tube platformasida 863 mingdan ortiq obunachiga ega bo‘ldi. Platformada 2900 dan ortiq video joylashtirilgan, deyarli 65 million marta tomosha qilingan.

“Ibrat farzandlari” doirasida “Ibrat kashfiyotlari” loyihasiga asos solingan. Bu loyiha orqali yurtimizning turli hududlari, jumladan, chekka qishloqlarida xorijiy tillarni o‘rganayotgan yoshlar, dunyoning TOP 20 talik universitetlariga 100 foizlik grantni ko‘lga kiritgan yigit-qizlar haqida hikoya qilinadi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari  
**Risolat MADIYEVA, Munajat MO‘MINOVA** tayyorladi.



Boshlanishi 1-betda

Mas’ullar jonlandi, ijrochilar yeng shimardi, joylarda tashabbuslarga xayrixoh, ishga chanqoq yoshlar maydonga chiqdi. Oradan o‘tgan fursat mobaynida o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlana boshladi, yurtdoshlarimiz har qadamda uning hosilasini his qilayotganini e’tirof etdilar.

“Besh muhim tashabbus” — bugungi kunda mamlakatimiz yoshlar siyosatida tub burilish yasagan, innovatsiya, ta’lim, sport,

madaniyat, axborot texnologiyalari va xotin-qizlar bandligini qamrab olgan keng ko‘lamli dastur o‘laroq ijtimoiy hayotimizga kirib keldi. Tashabbuslarning mohiyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har birining zamirida chuqur o‘ylangan ma’no va mazmun borligiga guvoh bo‘lamiz. Quyida ularning mazmuni, amaliy natijalari va jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, qanday qilib qamrov, ko‘lam kengaygani va maqsadlar takomillashgani haqida so‘z yuritamiz.

### 1-TASHABBUS MAQSADI:

**Yoshlarni madaniyat va san’atga jalb qilish, iste’dodini yuzaga chiqarish**



Birinchi tashabbus bo‘yicha yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etishga oid davlat dasturi loyihasi tayyorlandi. Unga muvofiq, 2019-2020-yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan 2 million yoshni madaniyat va san’atga jalb etish bo‘yicha hududiy “yo‘l xarita”larini tasdiqlash ko‘zda tutildi. Shuningdek, bolalar musiqa va san’at maktablarida qo‘shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg‘u, xonandalik, tasviriy san’at to‘garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllarini tashkil etish belgilandi. Yangidan quriladigan, rekonstruksiya va kapital ta’mirlanadigan hamda jihozlanadigan madaniyat markazlari manzilli ro‘yxati ham shakllantirildi.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarish ijrosini tizimli tashkil etish, to‘garak va sinflarga qamrab olingan bolalarni rag‘batlantirish, jumladan, har xil

tanlovlar o‘tkazish zarurligi maqsad qilindi. Tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta’lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi. — San’at va badiiy ijod shaxs fenomenini shakllantiruvchi asosiy mezonidir, — deydi san’atshunos Shohida Eshonboboyeva. — Shunday ekan, yoshlarda estetik ong, estetik did, estetik immunitet, estetik intellektli shakllantiruvchi, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy-estetik ijod namunalarining o‘rmini alohida e’tirof etish zarur. San’atning qudratli kuchi shundaki, u nafaqat insonga ma’naviy ozuqa beradi, balki butun bir jarayonlarning, taraqqiyotning qudratli quroli bo‘la oladi. Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarliqligida, kishilar ichki ruhiy dunyosiga emotsional ta’sir ko‘rsata olishidadir.

### 3-TASHABBUS MAQSADI:

**Kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish**



Butun dunyoda qadriyatlar almashishi, integratsiyalashuv, globallashuv, agar ta’bir joiz bo‘lsa, madaniyatlar aralashuvi, sintezlashuvi jarayoni kechayotgan hozirgi paytda o‘zga urf-odatlariga, ma’naviy tamoyillarga moyil bo‘lish tabiiy hol. Bugungi globallashuv davrida axborot tarqatish nihoyatda zamonaviy qiyofaga kirdi. Internet tarmog‘ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Ushbu jarayon nafaqat kattalar, balki bolalar psixologiyasiga ham ta’sir qiladi. Agar o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg‘ulotlari musiqa tinglash va teleko‘rsatuv ko‘rish bo‘lgan esa, hozirga kelib kompyuter, telefon va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o‘z qiziqish va sevimli mashg‘ulotlari haqida so‘z yuritganda sport, do‘stlar bilan suhbatlashish, ma’naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo‘lgan qiziqishini birinchi o‘rinda tilga oladi.

Uchinchi tashabbusga oid dastur doirasida tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etish va ularda bepul ta’lim berish, 19 mingga yaqin ijtimoiy soha obyektlari yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulash ko‘zda tutilgan edi. Aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqigan bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirib, ularni malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

— Davlatimiz tomonidan tashkil etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishida yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi, — deydi Raqamli texnologiyalar vazirligining raqamli ta’limni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Jasurbek Qaynarbekov. — Negaki, axborot urushida inson ongi, millat ruhiyati nishonga aylanadi. Bu urushda binolar talafot ko‘rmas, inson qurbon bo‘lmas, lekin uning mafkuraviy, ma’naviy, ruhiy zararini biror narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

### 2-TASHABBUS MAQSADI:

**Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, buning uchun zarur sharoitlar yaratish**



Xalqimiz asrlar davomida xilma-xil milliy sport turlarini yaratganki, bu, o‘z navbatida, yoshlarning jismoniy va ma’naviy tarbiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qadimdan kurash, ot sporti, kamondan otish, dorbozlik kabi sportning milliy turlari ancha rivojlanib kelgan. Bugun O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sporti oddiy jismoniy mashq va o‘yinlardan zamonaviy olimpiya sport turlariga qadar yuksak taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

Ikkinchi tashabbus yuzasidan tayyorlangan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dasturda har bir tumanda kichik sport zallari qurish belgilandi. Shuningdek, maktablarda jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish, aholi o‘rtasida sport madaniyatini yuksaltirish, ommaviy sport targ‘ibotini rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqilib, ularni hayotga tatbiq etishga kirishildi.

Sport hozirgi jamiyatning yanada taraqqiy etishida yordam beruvchi qudratli vositadir. Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligi yanada kengaydi. Respublika aholisining katta qismi sportning har xil turlari bilan shug‘ullana boshladi. Davlatimizning e’tibor markazida sog‘lom avlod uchun olib borilayotgan uzluksiz sa’y-harakatlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida so‘nggi yillarda qizlar sportining jadal rivojlanayotganligini

aloahida ta’kidlash o‘rinlidir. Har tomonlama puxta o‘ylangan g‘oya va dasturiy rejalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ayniqsa, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib boradigan ayol murabbiylarni tayyorlash, ular mehnatini moddiy rag‘batlantirishga qaratilgan jiddiy e’tibor bugungi kunda o‘zining bir talay ijobiy natijalarini namoyon etmoqda.

— Tadiqotlar so‘nggi besh yilda sport bilan muntazam ravishda shug‘ullangan 10-14 yoshli o‘g‘il bolalarning bo‘yi o‘rtacha 2,3 santimetrga, qiz bolalarning bo‘yi esa 2 santimetrga o‘sganligini, vazni esa muvofiq ravishda 2,6 kilogramm va 2,9 kilogrammga oshganligini ko‘rsatadi, — deydi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Davron Nazarov. — Bolalar sportini rivojlantirish orqaligina o‘zbek sportining kelajagini ta’minlash, xalqaro maydonda uning obro‘-e’tibor qozonishiga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Bu borada olib borilayotgan ishlar natijalari nafaqat sportda erishilayotgan yutuqlarda, balki odamlarimiz ongida yuz berayotgan o‘zgarishlarda, ularda farzandlar kelajagi, mamlakat istiqboliga mas’ullik, daxldorlik tuyg‘usining yuksalayotganligida ham namoyon bo‘lmoqda.

### 4-TASHABBUS MAQSADI:

**Yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish**



Ma’lumki, aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish davlatimiz rahbarining doimiy e’tiboridagi masalalar sirasiga kiradi. Natijada bugun badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, ijtimoiy so‘xtalarni orqali aniqlash, nashriyotlar tomonidan chiqariladigan badiiy, ma’rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning (shu jumladan, elektron shaklda) umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimi holati yaxshilandi.

Besh tashabbus doirasida mamlakat bo‘ylab yangi kutubxonalar ochildi, elektron kitob platformalari yaratildi. 1000 dan ziyod kutubxona yangilanib, elektron kataloglar joriy etildi. “Yosh kitobxon” kabi tanlovlar mamlakat bo‘ylab ommalashdi.

Shuningdek, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va aholining keng qatlamini qamrab olish, kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va

otish bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqildi. Chop etilayotgan kitoblarni aholi o‘rtasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali targ‘ib qilish, ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish masalalari izzatlashdi.

— Ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan o‘zbek va chet el adiblarining mumtoz va zamonaviy asarlarini tanlab, xrestomatya adabiyotlari ro‘yxatlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘quv jarayoniga mutolaa etilgan asarlar asosida insho yozish tizimi joriy etildi, — deydi shoir Doniyor Mirzo. — Hududlarda yozuvchi-shoirilar ishtirokida kitob bayrami va yarmarkalarini tashkil etish, aholi o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak milliy va jahon mumtoz adabiyotlari namunalarini targ‘ib qilish, kitobxonlar, bosma va elektron kitob ishlab chiqaruvchilar, kitob sotuvchilar hamda kutubxonachi va targ‘ibotchilar orasida tanlovlar o‘tkazish tizimi takomillashtirildi.

### 5-TASHABBUS MAQSADI:

**Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash**



Hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta’minlash chora-tadbirlari dasturi ishga tushirildi. Har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollarni band etish ishlari amalga oshirildi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularga mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish yo‘lidagi sa’y-harakatlar natijasida shu yillar mobaynida oliy ta’lim muassasalari talabalari orasidan ishlash istagida bo‘lgan xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish bo‘yicha o‘quv-kurslari tashkil etildi. Tikuvchilik, qandolatchilik sexlari, go‘zallik saloni, fitness klub, xizmat ko‘rsatish turlarining boshqa yo‘nalishlarida ish boshlash uchun xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar ajratildi.

Ular “Ustoz-shogird” an’analari asosida hunarmandchilikka o‘rgatish orqali bandligini ta’minlash va tajribali hunarmandlarga birlashtirish, hunarmand xotin-qizlarga tuman “Aholi bandligiga ko‘maklashish” markazi tomonidan mehnat daftarchalari ochib berila boshlandi.

Faol bo‘lmagan yosh qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning muammolarini aniqlash va tahlil qilish, sayyor muloqotlar tashkil qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rish ishlariga alohida ahamiyat qaratilgan.

— Besh tashabbus yosh avlod ongiga zamonaviylik ruhini singdirish, ularni yaratuvchanlikning yangidan-yangi yo‘nalishlariga boshlashda asosiy omil vazifasini bajarib kelmog‘da, — deydi O‘zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti katta o‘qituvchisi Feruza Abdusagatova. — Haqiqatan, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi va hayoti bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lami juda keng. Bu jarayon yoshlar tarbiyasida biz — pedagoglar zimmasidagi mas’uliyat zalvorini bir necha baravar oshiradi. Shuning uchun ham Prezidentimiz ko‘rsatmalarini o‘z faolligimizda muhim dastur qilib olsak, ishimizda mazmun va samara bo‘lishi tayin. Yoshlar kelajagimiz davomchilari, ularga bugungi kunda berilgan e’tibor, davlatimiz va xalqimizning kelajagiga berilgan e’tibordir.

\*\*\*

**Yoshlar — yangi O‘zbekistonni barpo etishda tayanch kuch yoxud loyihaning amaliy natijalari yangi imkoniyatlar uchun asos bo‘ldi**

“Besh muhim tashabbus” — bu shunchaki dastur emas, balki muqobil bo‘lmagan imkoniyatlar maydonidir. U yoshlarning salohiyatini ochish, jamiyatning har bir qatlamini qamrab olish, mamlakatning intellektual va madaniy yuksalishiga zamin yaratmoqda. Mustahkam asosga ega bu tashabbuslar yangi O‘zbekiston kelajagi bilimi, sog‘lom, faol va vatanparvar yoshlar qo‘lida ekanini yana bir bor isbotlaymoqda.

Ma’lumki, “Besh muhim tashabbus”ning amaliy natijalari yangi imkoniyatlar uchun asos bo‘ldi. Jumladan, bugun loyiha olimpiada tusini olgan. Uning olimpiada shaklida tashkil etilishi orqali yoshlarga o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish va rivojlantirish imkoniyati kengaydi. Mahalla, tuman, shahar, shuningdek, maktab, kollej, texnikum va oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilayotgan “Besh tashabbus olimpiadasi” tanlovlaridan maqsad — yoshlarni mazkur yo‘nalishlarda faol qatnashishga undash, iqtidorlilarni aniqlash va rag‘batlantirishdan iborat.

Olimpiadaning xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, bunda har bir tashabbus bo‘yicha alohida yo‘nalishda musobaqalar o‘tkaziladi. Ularda

umumta’lim maktablari, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilari va talabalari ishtirok etadi. G‘oliblar tuman, viloyat va respublika bosqichlari orqali aniqlanadi. O‘z iqtidorini namoyon qilgan yoshlarga grantlar, sertifikatlar va moddiy rag‘batlar beriladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha yo‘nalishdan mini futbol, yugurish, voleybol, basketbol, stol tennis, shaxmat, badiiy gimnastika va boshqa sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘rin olgan bo‘lsa, madaniyat va san’at yo‘nalishi musavvirlik, xalq amaliy san’ati, xonandalik, teatr, raqs, kuy va musiqa kabi tanlovlarni o‘zida jo qilgan.

Axborot texnologiyalari va internet yo‘nalishida kompyuter savodxonligi, dasturlash, veb-sayt yaratish, kibernetika, robototexnika va IT tanlovlari, xotin-qizlarning ish bilan bandligini ta’minlash yo‘nalishida esa qo‘l mehnati, tikuvchilik, dizayn, oshpazlik, tadbirkorlikka oid tanlovlar o‘rin olgan.

Kitobxonlik yo‘nalishi alohida mavzu. Badiiy va ilmiy adabiyotlar bo‘yicha testlar, insholar, adabiy tahlil, “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi kabilarni qamrab olgan olimpiada bugun o‘z atrofida minglab yoshlarni birlashtirdi.

— Prezidentimiz haqli ravishda ta’kidlaganidek, tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi, — deydi O‘zbekiston xalq shoiri, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. — Tarbiya esa, albatta, kitob orqali takomillasib boradi. Yoshlarni egzulik maqsadlarida birlashtirayotgan xayrli ishga Yozuvchilar uyushmasi ham bor imkoniyatlarini ishga solib, o‘z hissasini qo‘shyapti. Yoshlarimiz bevosita suhbatlashishni istagan shoir-yozuvchilar, adiblar bilan Adiblar xiyobonida tashkil etilayotgan oqshomlar munozamlik kasb etgan. Bundan tashqari, yangi kitoblar taqdimotlari, umuman, mutolaa bilan bog‘liq tadbirlarning barchasi ko‘tarinki ruhda tashkil qilinaypti.

Asosiy maqsadi yoshlarning intellektual, ijodiy va sport salohiyatini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faollikka jalb etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdan iborat “Besh tashabbus olimpiadasi” 2022-yildan buyon muntazam o‘tkazib kelinadi. Olimpiada 26 ta loyihani o‘z ichiga oladi. Ularning 13 tasi tanlov bo‘lsa, 13 tasi sport musobaqalari hisoblanadi. O‘zbekistonda yashovchi 14-30 yoshdagi barcha yoshlar bu musobaqalarda ishtirok etishi mumkin.

“Besh tashabbus olimpiadasi”da 2023-yilda 6,4 million yoshlar musobaqalarda ishtirok etgan bo‘lsa, 2024-yilda ular soni 10 milliondan oshdi. Musobaqalar qamrovini yanada kengaytirish, ularning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda yoshlarning sport va intellektual sohalarda muvaffaqiyat qozonishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish ushbu ishlarni qizg‘in pallada. Joriy 2025-yilda ishtirokchilarning sonini 12,5 milliondan oshirish maqsad qilingan. Ushbu natijalar yoshlarning “Besh tashabbus olimpiadasi”ga qiziqishi ortib borayotganining yaqqol isboti, desak adashmaymiz.

Demak, “Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2025-yilgi mavsumida madaniyat-san’at yo‘nalishida 2 ta, sport yo‘nalishida 14 ta, IT yo‘nalishida 1 ta, kitobxonlik va intellektual yo‘nalishda 2 ta, kasb-hunar yo‘nalishida 5 ta tanlov va musobaqalar tashkil etiladi. Yoshlardan esa talab etiladigan yagona narsa — bu musobaqalarda faol qatnashish hamda jismoniy va intellektual salohiyatini oshirishdir.

**Nodir MAHMUDOV,**  
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-746.  
34972 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 4 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:20 Topshirildi — 01:20